

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

FARG'ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTI

GISTOLOGIYA VA BIOLOGIYA KAFEDRASI



TIBBIY BIOLOGIYA.UMUMIY GENETIKA FANIDAN

TEST

savollari to'plami

Bilim sohasi: 500000 – Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot

Ta'lim sohasi: 510000 – Sog'liqni saqlash

Ta'lim yo'nalishi: 60910500– Tibbiy profilaktika ishi
60910300– Pediatriya ishi
60711800– Biotibbiyot muxandisligi
60910200– Davolash ishi

Farg'ona

Tuzuvchilar:

Xomidjonova Sh.X-- Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti "Gistologiya va biologiya"
kafedraasi assistenti
Kadirova.X.A - Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti "Gistologiya va biologiya"
kafedraasi assistenti

Taqrizchilar:

G.Xamidov –Farg'ona davlat universiteti "Botanika va biotexnologiya" kafedraasi professori

I.Rahmatullayev- Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti "Tibbiy va biologik kimyo"
kafedraasi dotsenti

Fanning testlar to'plami Gistologiya va biologiya kafedrasining 2022 yil 29.04.9.
yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri:



PhD M.T. Yuldasheva

1. Odam kariotipidagi metasentrik xromosomalarni ko'rsating ?

- A. 1 va 3 *
- B. 3 va 5
- C. 19*
- D. 20*
- E. 21
- F. 22

2. Odam kariotipidagi akrosentrik xromosomalarni ko'rsating ?

- A. 13, 14 va 15*
- B. 19
- C. 20
- D. 22*
- E. 21*
- F. 1, 2, 3

3. Odam kariotipidagi submetasentrik xromosomalarni ko'rsating ?

- A. 8*
- B. 3
- C. 6 va 7*
- D. 22
- E. 4 va 5*
- F. 5 va 15

4. Odam kariotipida uchraydigan yo'ldoshli xromosomalarni ko'rsating ?

- A. 21 va 22*
- B. 13 va 14*
- C. 3 va 13
- D. 4 va 21
- E. 15*
- F. 4 va 5

5. Jinsiy xromatinni aniqlash qaysi soxalarda qo'llaniladi ?

- A. Organlarni ko'chirib o'tkazishda*
- B. Pediatriyada*
- C. Irsiy kasalliklarni aniqlashda*
- D. Ontogenezning karilik davrini o'rganishda
- E. Odamning kelib chiqishini o'rganishda
- F. Zaharli hayvonlardan himoyalashda

6. Jinsiy xromatinga xos belgilarni ko'rsating ?

- A. Interfazadagi hujayra yadrosida uchraydi*
- B. Jinsiy X-xromosomadan hosil bo'ladi*
- C. X-xromosomaning kichik yelkasida faollik doim saqlanib qoladi*
- D. Hujayraning barcha davrlarida uchraydi
- E. DNK ga xos bo'yoqda bo'yalmaydi
- F. Erkaklarda xech qachon uchramaydi

7. Irsiy bo'lmagan belgini ko'rsating ?

- A. Harakter*
- B. Vazn*
- C. Kasb*
- D. Qon guruxi
- E. Xromosomalar soni
- F. Olti barmoq lilik

8. Idiogramma nimaligini, qanday maqsadda tuzilishini va kamida qancha hujayrada aniqlanishi kerakligini belgilang ?
- A. Idiogramma - barcha morfologik belgilar ko'rsatilgan gaploid to'plam xromosomalarning grafik tasviri*
 - B. Idiogramma - barcha morfologik belgilar ko'rsatilgan diploid to'plam xromosomalarning grafik tasviri
 - C. Xromosomalarning uzunligi va shakliga qarab juda aniq bir-biridan ajratish uchun idiogramma tuziladi*
 - D. Xromosomalarning sonini aniqlash maqsadida idiogramma tuziladi
 - E. Idiogramma tuzish uchun xromosomalarda sentromeraning o'rni, katta va kichik yelkalarining uzunligi kamida 10 ta hujayrada aniqlanadi*
 - F. Idiogramma tuzish uchun xromosomalarda sentromeraning o'rni, katta va kichik yelkalarining uzunligi kamida 23 ta hujayrada aniqlanadi
9. Euxromatinga tegishli bo'lgan to'g'ri javoblarni aniqlang ?
- A. Euxromatin-genetik jihatdan faol bo'lgan qism*
 - B. Euxromatin-asosan ishlovchi genlar to'plamidan iborat*
 - C. Euxromatin-xromosomani to'q ranga-yaxshi bo'yaladigan qismi
 - D. Euxromatin-xromosomani yaxshi bo'yalmaydigan qismi*
 - E. Euxromatin-genetik jihatdan faol bo'lmagan qism
 - F. Euxromatin-asosan ishlamaydigan genlar to'plamidan iborat
10. Geteroxromatinga tegishli bo'lgan to'g'ri javoblarni aniqlang ?
- A. Geteroxromatin-genetik jihatdan faol bo'lmagan qism*
 - B. Geteroxromatin-asosan ishlovchi genlar to'plamidan iborat
 - C. Geteroxromatin qismidan ozgina bo'lakcha ham yo'qolsa katta o'zgarishlarsha olib kelishi mumkin
 - D. Geteroxromatin-xromosomani yaxshi bo'yalmaydigan qismi
 - E. Geteroxromatin qismidan ozgina bo'lakcha yo'qolsa ham-xavfli emas*
 - F. Geteroxromatin-asosan ishlamaydigan genlar to'plamidan iborat*
11. Odam kariotipida ikkilamchi belbog'ga ega bo'lgan xromosomalar juftini aniqlang ?
- A. 1 va 16*
 - B. 6 va 8*
 - C. 9
 - D. 11*
 - E. 10
 - F. 3
12. Dermatoglifikaning bo'limlarining ko'rsating ?
- A. Palmoskopiya*
 - B. Morfoskopiya
 - C. Plantoskopiya*
 - D. Plantokopiya
 - E. Daktiloskopiya*
 - F. Epiloskopiya
13. Odam kafti terisida qanday dermatogliflik belgilarning ko'rish mumkin
- A. Reseptorlar
 - B. Qon tomirlar
 - C. Burmalar*
 - D. Tuklar
 - E. Chiziqlar*
 - F. Yastikchalar*
14. Odam kafti tomonlarini belgilovchi tushunchalarni ko'rsating ?
- A. Radial*
 - B. Ulnar*

- C. Distal*
- D. Tenar
- E. Karpal
- F. Medial

15. Barmoq uchlarida uchraydigan chiziqlar xilini ko'rsating ?

- A. Yulduzsimon
- B. Aylanasimon*
- C. Oysimon
- D. Ilmoksimon*
- E. Nursimon
- F. Yeysimon*

16. Barmoqlar terisidagi tasvirlarni yuzaga chiqarishda qaysi xromosomalardagi genlar qatnashadi ?

- A. 16
- B. 17 va 18*
- C. 11
- D. 21*
- E. 13*
- F. 12

17. Irsiy kasalligi bor kishida uchraydigan dermatogliflik belgilarni ko'rsating ?

- A. Asosiy triradiusni joylashishi o'zgaradi*
- B. Barcha barmoqlardagi chiziqlar soni ayollarda 110-135 ta bo'ladi
- C. atd triradiusi 57 ni tashkil qiladi
- D. Barmoq dagi yeysimon tasvir 6 %
- E. Kaftda to'rt barmoqli ko'ndalang burma paydo bo'ladi*
- F. Barmoq uchlarida tasvirlar o'zgaradi*

18. Barmoq uchlaridagi chiziqlar tasviri xilini va ularning uchrash foizini ko'rsating ?

- A. Yoysimon-6 % *
- B. Uchburchak-13 %
- C. Tuxumsimon-17 %
- D. Ilmoqsimon-60 % *
- E. Vergulsimon-6 %
- F. Aylanasimon-34 % *

19. Klaynfelter sindromida ko'zatiladigan dermatogliflik belgilar;

- A. Barmoq uchlarida aylanasimon va yoysimon chiziqlar ko'proq uchraydi*
- B. Asosiy triradius kaftning distal tomonida
- C. Barmoqlar umumiy chiziqlarining soni kamaygan
- D. Barmoq uchlarida yoysimon chiziqlar ko'proq uchraydi
- E. Barcha barmoqlardagi teridan bo'rtib chiqqan chiziqlar soni kamaygan*
- F. Asosiy triradius kaftning proksimal tomonida*

20. Populyasiya xillarini ko'rsating ?

- A. Panmiktiv*
- B. Gomologik
- C. Izolyantlar*
- D. Dezruptiv
- E. Demlar*
- F. Stabillashgan

21. Irsiy jixatdan bir-biriga yaqin bo'lgan oliy darajadagi organizmlarning ko'rsating ?

- A. Mongoloidlar*
- B. Lemurlar

- C. Negroidlar*
- D. Gibbonlar
- E. Yevropoidlar*
- F. Orangutanlar

22. Hardi-Vaynberg formulasidan foydalansa bo'ladigan holatlarni belgilang ?

- A. Autosomada joylashgan bir juft gen o'rganilayotgan bo'lsa*
- B. O'talanish va gametalarning qo'shilishidan tasodifiy bo'lganda*
- C. Sodir bo'lgan mutasiyada orqaga qaytish bo'lmasa*
- D. Populyasiyada individlar soni kam bo'lganda
- E. Autosomada joylashgan bir necha juft gen o'rganilayotgan bo'lsa
- F. Populyasiyadagi individlarning serpushtligi har xil bo'lganda

23. Hozirgi zamon odam populyasiyalarida ilgari ko'zatilmagan qanday jarayonlarni ko'rish mumkin

- A. Izolyantlar o'rtasidagi nikohning juda kamayishi*
- B. Muhitning sog'lomlashganligi tufayli genotip xossasining to'liq yuzaga chiqishi*
- C. Bir xil kasallik o'rniga ikkinchi kasalliklarning paydo bo'lishi*
- D. Izolyantlar o'rtasidagi nikohning juda ko'payishi
- E. Muhitning sog'lomlashganligi tufayli genotip xossasining to'liq yuzaga chiqmasligi
- F. Tanlashning rolini kamayib borishi

24. Populyasiyaning xillaridan biri bo'lgan izolyantlar uchun xos bo'lgan holatlarni belgilang

- A. Izolyantlar orasida boshqa populyasiya odamlari faqat 1 % nigina tashqi l qiladi*
- B. qarindoshlar orasidagi nikoh esa 90 % dan ortishi *
- C. Izolyantlarning 4-avlodi vakillari aka-uka va opa singilning farzandlari bo'lib qoladi*
- D. Izolyantlar orasida boshqa populyasiya odamlari 50 % ni tashqi l qiladi
- E. qindoshlar orasidagi nikoh esa 1 % dan oshmaydi
- F. Izolyantlarning 1-avlodni vakillariyoq aka-uka va opa singilning farzandlari bo'lib qoladi

25. Populyasiya xillari uchun harakterli belgilarni va odam populyasiyalari uchun hos bo'lgan muhim hususiyatlarni aniqlang ?

- A. Populyasiyachada odamlar soni 1500 dan kam bo'lsa izolyantlar deyiladi*
- B. Populyasiyachada odamlar soni 1500-4000 gacha bo'lsa demlar deyiladi*
- C. Odam populyasiyasida individlar soni doim oshib boradi*
- D. Odam populyasiyasida tanlanishning roli doim ortib boradi
- E. Populyasiyachada odamlar soni 1500-4000 gacha bo'lsa izolyantlar deyiladi
- F. Populyasiyachada odamlar soni 1500 dan kam bo'lsa demlar deyiladi

26. Daun kasalligida ko'zatiladigan belgilarning ko'rsating ?

- A. Bo'yi baland
- B. Kul barmoqlari normada
- C. Muskullar sistemasi sust rivojlangan*
- D. Terisi kuruk*
- E. Sochlar siyrak*
- F. Barmoqlar uzun va ingichka

27. Autosomaga bog'liq bo'lgan kasalliklarni ko'rsating ?

- A. Edvars*
- B. Daltonizm
- C. Daun*
- D. Mushuk chinqirigi*
- E. Klaynfelter
- F. Shereshevskiy-Terner

28. Klaynfelter kasalligida kuzatiladigan belgilarni ko'rsating ?

- A. Yelka tor*

- B. Barmoq uchlarida nakshlar ko'pincha yoysimon*
- C. Urug chiqaruvchi kanal yaxshi rivojlanmagan*
- D. Bo'ylari, oyoqlar kalta
- E. Tos suyagi tor
- F. Muskullar yaxshi rivojlangan

29. Shereshevskiy-Terner sindromida ko'zatiladigan belgilarni ko'rsating ?

- A. Xromosomalar 47
- B. Ko'krak bezlari normada
- C. Buyin juda qisqa*
- D. Xromosomalar 45*
- E. Oyoqlari kalta*
- F. qon aylanish sistemasi o'zgarmagan

30. Mushuk chinqirig'i kasalligida ko'zatiladigan belgilarni ko'rsating ?

- A. Ovoz paylarining o'zgarishi tufayli mushuk miyovlashiga o'xshash ovoz chiqaradi*.
- B. Oltinchi xromosomada delesiya
- C. Aqliy, jismoniy zaiflik*
- D. Autosomalar soni 43 ta
- E. Kalla suyagi kichik, yuz tuzilishi yumaloq*
- F. To'rtinchi xromosomadagi gen mutasiyaga uchragan

31. Patau kasalligida ko'zatiladigan belgilarning ko'rsating ?

- A. Kariotipdagi xromosomalardan 18-chisi ortiqcha
- B. Vazni va bo'yi juda kichik*
- C. Kamida 50 yil yashaydi
- D. Yuqori labida va tanglayida yo'riqcha bor*
- E. Jinsiy bezlarda o'zgarish yo'q
- F. Asosiy triradius 180 ga teng*

32. Xromosoma kasalliklariga xos bo'lgan belgilarni ko'rsating ?

- A. Kariotip o'zgarishsiz qoladi
- B. Bolalik chog'idayoq nobud bo'ladi*
- C. Jinsiy xromosomalar sonida o'zgarish yo'q
- D. Nasldan naslga berilavermaydi*
- E. Doimo yangidan paydo bo'lib turadi*
- F. Faqat autosomalar o'zgarishi bilan yuzaga keladi

33. Odamlarda uchraydigan xromosomalar sonini o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan kasalliklarni ko'rsating ?

- A. Ixtioz
- B. Klaynfelter*
- C. Edvars*
- D. Patau*
- E. Gipertrixoz
- F. Sindaktiliya

34. Fenilketonuriya kasalligida ko'zatiladigan belgilarni ko'rsating ?

- A. Fenilalanin normal parchalanishidagi buzilish*
- B. Terida melaninning kamayishi*
- C. Aqliy zaiflik*
- D. Sut tishlarining chiqmasligi
- E. Terida yeg miqdorining ko'payishi
- F. Yassi tovonlik

35. Marfan kasalligida ko'zatiladigan belgilarni ko'rsating ?

- A. Gipertrixoz
- B. Barmoqlarning ingichka va uzun bo'lishi*
- C. Sochning siyrak va kam bo'lishi
- D. Ko'z tuzilishining buzilishi*
- E. Yurak tuzilishining buzilishi*
- F. Sindaktiliya

36. Aminokislotalar almashinuvi buzilishi bilan kelib chiqadigan gen kasalliklarini ko'rsating

- A. Albinizm*
- B. Mukopolisaharidoz
- C. Gangliozidoz
- D. Galaktozemiya
- E. Fenilketonuriya*
- F. Alkoptonuriya*

37. Uglevodlar almashinuvi buzilishi natijasida kelib chiqadigan gen kasalliklarni ko'rsating ?

- A. Leykodistrofiya
- B. Galaktozemiya*
- C. Fruktozuriya*
- D. Pentozuriya*
- E. Albinizm
- F. Gemofiliya

38. Lipidlar almashinuvining buzilishi natijasida yuzaga keladigan kasalliklarni ko'rsating

- A. Alkaptanuriya
- B. Mukopolisaharidoz
- C. Sfigomielikoz*
- D. Galaktozemiya
- E. Leykodistrofiya*
- F. Glyo'qoufebrozidoz*

39. Alkaptanuriya kasalligida kuzatiladigan belgilarni ko'rsating ?

- A. Siydik qora*
- B. Burun tog' aylari sariq
- C. Bo'g'inlardagi togaylar sariq-binafsha rangga kiradi*
- D. Bo'g'inlarda qora pigment paydo bo'ladi
- E. Quloq suprasi va burun tog' aylari qorayadi*
- F. Siydik sariq

40. Gemoglobinopatiya kasalligida ko'zatiladigan belgilarni ko'rsating ?

- A. Tromboz*
- B. Albinizm
- C. Gipertrixoz
- D. Oltibarmoq lilik
- E. Kamqonlilik*
- F. Qon aylanishining buzilishi*

41. Purin va pirimidin almashinuvining buzilishidan kelib chiqadigan kasalliklarda qanday belgilar kuzatiladi)

- A. Gipoksantin-fosforibozil-trasferaza (GFRT) fermenti yetishmaydi*
- B. Siydik kislotasi miqdori oshib ketadi*
- C. Muskullar qisqarishi tezlashadi*
- D. Soch rangi o'zgaradi
- E. Tishlar tushib ketadi
- F. Yassi tovonlik

42. Gangliozidoz kasalligida yuzaga keladigan belgilarni ko'rsating ?

- A. Sindaktiliya
- B. Leykositlar soni juda oshib ketadi
- C. Terida melanin juda kamayib ketadi
- D. Ovozga juda kuchli ta'sirchan bo'ladi*
- E. Ko'rish kobilyati bo'ziladi*
- F. qo'l va oyoqlar harakati susayadi*

43. Galoktozemiya kasalligida kuzatiladigan belgilarning ko'rsating ?

- A. Qon ivimaydi
- B. Organizm galoktozani o'zlashtira olmaydi*
- C. Otokleroz
- D. Jigar ishi buziladi*
- E. Gipertrixoz
- F. Buyrak ishi buziladi*

44. Albinizm kasalligida yuzaga keladigan belgilarni ko'rsating ?

- A. Adrenalin fermenti yo'q
- B. Tirozinoza fermenti yo'q*
- C. Ko'zning ko'rish qobilyati ancha susaygan*
- D. Ko'zning rangdor pardasida, terida, sochda rang bo'lmaydi*
- E. Ko'zning rangi qora yoki ko'k
- F. Bo'yi pakana

45. Tug'ilgan bolada ko'z gavharining tiniq bo'lmasligi sabablari va ushbu holat nimaga misol bo'lishi mumkin ?

- A. Resessiv irsiy kasallik*
- B. Genokopiyaga misol.
- C. Onaning homilador paytida ionlashtiruvchi nurlar olganligi*
- D. Fenokopiyaga misol*
- E. Dominant irsiy kasallik
- F. Sil kasalligini oqibati

46. Jinsiy xromosomalarga bog'liq bo'lgan kasalliklar ?

- A. Kleynfeltr kasalligi*
- B. Shereshevskiy-Terner kasalligi*
- C. X-xromosoma bo'yicha trisomiya kasalligi*
- D. Mushuk chinqirig'i kasalligi
- E. 18-chi juft xromosomaning uzun yelkasidagi uzilish.
- F. Daun kaslligi

47. Autosomaga bog'liq bo'lgan kasalliklar ?

- A. Daun kasalligi*
- B. Edvars kasalligi*
- C. Patau kasalligi*
- D. Kleynfeltr kasalligi
- E. Shereshevskiy-Terner kasalligi
- F. X-xromosoma bo'yicha trisomiya kasalligi

48. Quyida keltirilgan kasalliklarning sabablari to'g'ri ko'rsatilganini belgilang ?

- A. Galaktozemiya - galaktozo-1-fosfatni parchalovchi galaktozo-1-fosfaturidiltransferaza fermentiining yetishmasligi tufayli yuzaga keladi*
- B. Leykodistrofiya - mielin tarkibiga kiruvchi lipidlar almashinuvining buzilishi bilan yuzaga keladi*
- C. Albinizm - tirozinni meloniga aylantiruvchi tirozinaza fermenti sintezini boshqaruvchi genning mutasiyaga uchrashi hisobigi sodir bo'ladi*

- D. Gemofiliya - bu kasallik gemoglobin strukturasi o'zgarishi bilan yuzaga keladi)
- E. Fenilketonuriya - gomogentizinoksidaza fermentini sintezini belgilovchi gen mutasiyaga uchragani uchun organizmda bu ferment juda kamayib ketadi)
- F. Gemoglobinopatiya - bu kasallik qonning ivishini ta'minlovchi oqsilni sintez qiladigan ferment strukturasi buzilishi natijasida yuzaga chiqadi)

49. Ontogenez bu ...

- A. Organizmning rivojlanishi*
- B. Organizmning o'sishi*
- C. Organizmning takomillashuvi*
- D. Organizmning farqlanishi
- E. Organizmning ayrim qismlarining rivojlanishi
- F. Jinsiy hujayralarning o'sishi

50. Ontogenezning tiplari?....

- A. Bevosita*
- B. Bilvosita*
- C. Bosqichma-bosqich
- D. Bevosita va bilvosita*
- E. Bosqichma-bosqich, bevosita va bilvosita
- F. Ketma-ket va to'g'ridan-to'g'ri

51. Bevosita rivojlanishga xos:

- A. Tuxumdan chiqqan organizm ko'rinishi bo'yicha ona organizmga o'xshaydi*
- B. Yangi tug'ilgan organizm ona organizmiga o'xshamaydi
- C. Yangi tug'ilgan organizm faqatgina ayrim a'zolarining yetishmaganligi, katta - kichikligi bilan farqlanadi*
- D. Yangi tug'ilgan organizm ko'rinishi bilan ona organizmga qisman o'xshasa xam, undan tana qismlarining unchalik mutanosib bo'lmasligi bilan farqlanadi*
- E. Bu rivojlanish amfibiya va reptiliyalarga xos
- F. Bu rivojlanish qush va sut emizuvchilarga xos*

52. Ontogenez bosqichlari:

- A. Prenatal, postnatal*
- B. Proembrional, postnatal
- C. Prenatal, progenez
- D. Progenez, embrional, postnatal*
- E. Progenez, proembrional
- F. Proembrional, embrional, postembrional*

53. Ontogenez haqidagi ta'limotning rivojidagi asosiy qarashlar qaysilar ?

- A. Metamorfizm
- B. Metafizik
- C. Preformizm*
- D. Epigenez*
- E. Preformizm va epigenez*
- F. Kreotinizm

54. Jinsiy hujayralar, ya'ni tuxum hujayra va spermatozoid, bular.....

- A. Shakllangan va yetilgan hujayralar*
- B. Bo'linmaydigan hujayralar*
- C. Mitoz usuli bilan bo'linadigan hujayralar
- D. Meyoz usuli bilan bo'linadigan hujayralar
- E. Organizmning reproduktiv davrida hosil bo'lib turuvchi hujayralar*
- F. Organizmning butun hayoti davomida hosil bo'lib turuvchi hujayralar

55. Gametalarning vazifasi ?

- A. Tuxum hujayrasi, spermatozoid hujayrasini faollashtiradi
- B. Spermatozoid individ rivojining dastlabki bosqichida murtakni ozuqa bilan ta'minlaydi
- C. Gametalar ota-ona belgilarini o'zida saqlab, hosila organizmga beradi*
- D. Tuxum hujayrasi individ rivojining dastlabki bosqichida murtakni ozuqa bilan ta'minlaydi*
- E. Spermatozoid urug'lantirish natijasida tuxum hujayrasini faollashtiradi*
- F. Ikkala jinsiy hujayra ota-onaga xos bo'lgan bir xil sifatli axborot tutadi

56. Tuxum hujayra - bu

- A. Yumaloq, harakatchan hujayra
- B. Cho'zinchoq, harakatsiz hujayra
- C. Yumaloq, harakatsiz hujayra*
- D. Oziqa moddasi-sariqlik tutadi*
- E. Kattaligi mavjudotlar turiga bog'liq holda turlicha bo'ladigan hujayralar*
- F. Yirik hayvonlarda yirik, mayda hayvonlarda juda mayda o'lchamga ega bo'lgan hujayralar

57. Tuxum hujayrasidagi sariqlikning miqdoriga qarab qanday gametalar tafovut etiladi?

- A. Oligolesital*
- B. Mezolesital*
- C. Izolesital
- D. Oligolesital, mezolesital*
- E. Telolesital, polilesital
- F. Izolesital, polilesital

58. Tuxum hujayrasi polilesital bo'lgan organizmlar.....

- A. ko'pgina baliqlar, lansetnik
- B. qushlar, amfibiyalar
- C. qushlar, lansetnik
- D. qushlar va tuxum qo'yuvchi sutemizuvchilar*
- E. sudralib yuruvchilar*
- F. qushlar va ayrim bog'imoyoqlilar*

59. Tuxum hujayrada qanday qutblar bo'ladi va ularning vazifalari..

- A. Animal qutb, mavjudot hosil bo'ladi
- B. Vegetativ qutb - sariqlik yiqilgan qutb, mavjudot hosil bo'ladi
- C. Animal - sariqlik hosil qilgan qutb, mavjudot hosil qiladi
- D. Animal va vegetativ qutb*
- E. Animal - sariqlik kam bo'lib, mavjudot hosil qiladi*
- F. Vegetativ qutb - sariqlik yiqilgan qutb, mavjudot rivojini ozuqa bilan ta'minlaydi*

60. Spermatozoid tashqi l topgan

- A. Boshcha, yadro ushlovchi oraliq qism va dumcha
- B. Boshcha va bo'yincha *
- C. Belbog'
- D. Oraliq qism*
- E. Dumcha*
- F. Xivchin va oraliq qism

61. Spermatozoid boshchasida bo'ladi:

- A. Birin-ketin spiralsimon o'ralgan mitoxondriyalar
- B. Proksimal va distal sentriolalar
- C. To'q bo'yalgan yadro*
- D. Akrosoma*
- E. Akrosoma va uni ATF energiyasi bilan ta'minlovchi mitoxondriyalar

F. Gialuridinaza fermentini tutgan, o'zgargan Goldji kompleksi*

62. Odam spermatozoidi

- A. Uzunligi 52-70 mkm*
- B. Yuzasi manfiy zaryadga ega bo'lgani uchun, tarqoq yotadi*
- C. Yuzasi musbat zaryadga ega bo'lgan i uchun, tarqoq yotadi
- D. Uzunligi 72-100 mm
- E. 1 ml spermada 250-350 mln. spermatozoid bo'ladi*
- F. 1 ml spermada 20 - 60 mln. spermatozoid bo'ladi

63. Gametogenez - bu ...

- A. Tuxum hosil bo'lishi
- B. Spermatozoidlarning hosil bo'lishi*
- C. Faqat spermatozoidlarning hosil bo'lishi
- D. Faqat tuxum hujayraning hosil bo'lishi
- E. Gametalarning hosil bo'lishi*
- F. Yuqori darajada differensirlashgan hujayralar - spermatozoid va tuxum hujayralarning hosil bo'lishi*

64. Bo'lajak birlamchi jinsiy hujayralar

- A. Embrion rivojining VI-xaftasi boshlarida sariqlik xaltachasi devorida hosil bo'ladi
- B. Embrion rivojining IV-xaftasi boshlarida sariqlik xaltachasi devorida hosil bo'ladi*
- C. Mezoderma qavatidan hosil bo'ladi
- D. Ektoderma hujayralari orasida namoyon bo'ladi
- E. Entoderma hujayralari orasida namoyon bo'ladi*
- F. Birlamchi jinsiy hujayralar shakllanganda, hali jinsiy bezlar hosil bo'lmagan bo'ladi*

65. Birlamchi jinsiy hujayralar....

- A. Faol migrasiya bilan jinsiy bezga kiradi*
- B. Sariqlik xaltachasi devoridagi qon tomirlar orqali jinsiy bezga o'tib, o'rnashadi*
- C. Dastlab, jinsiy bezda ularning soni o'ta ko'p bo'lib, so'ng kamayadi)
- D. Birlamchi jinsiy hujayralar soni dastlab, kam bo'ladi*
- E. Jinsiy bezda rivojlanish jarayonida meyozi ro'y beradi)
- F. Embrional rivojlanishda jinsiy bezda I-tartibdagi ovosit spermatositlar hosil bo'ladi

66. Spermatoqenezning ko'payish davriga xos:

- A. spermatogoniylarda meyozi bo'linish bo'ladi
- B. spermatogoniylarda mitoz bo'linish bo'ladi*
- C. muntazam bo'linib turuvchi hujayralarning 3 xili tafovut etiladi
- D. bo'linib turuvchi spermatogoniylarning 2 xili farqlanadi*
- E. "A" spermatogoniylar o'zak hujayra hisoblanadi*
- F. "B" spermatogoniylar o'zak hujayralar bo'lib, "A" spermatogoniylarni hosil qiladi

67. Spermatoqenezning yetilish davrida

- A. Meyozi I-profozasidagi jarayonlar bo'ladi
- B. Meiotik bo'linish sodir bo'ladi*
- C. Meiotik bo'linishning birinchisida I-tartibli spermatositdan 12 ta diploid hujayra hosil bo'ladi
- D. I-bo'linish natijasida 2 ta gaploid hujayra hosil bo'ladi*
- E. Yetilish davri natijasida 4 ta gaploid hujayra spermatida hosil bo'ladi*
- F. Yetilish 4 ta gaploid hujayra (II-tartibli spermatosit) hosil bo'ladi

68. Spermatoqenez natijasida

- A. har bir spermatoqoniy diploid 4 ta spermatid hosil qiladi
- B. har bir spermatoqoniy 4 ta gaploid to'plamli spermatid hosil qiladi*
- C. hosila spermatozoidlar "X" xromosomalarga ega
- D. hosila spermatozoidlar "U" xromosomalarga ega
- E. hosila spermatozoidlarning 2 tasi "X", 2 tasi "U" xromosomaga ega*

F. har biri ham urug'lantira oladigan spermatozoidlar hisoblanadi*

69. Ovogenez davrlarini ko'rsating?

- A. Ko'payish*
- B. Differensirlanish
- C. Ko'payish va differensirlanish
- D. O'sish*
- E. O'sish, yetilish va shakllanish
- F. Yetilish*

70. Spermatogenezning davrlarini ko'rsating?

- A. Ko'payish, o'sish *
- B. Differensirlanish
- C. Ko'payish va differensirlanish
- D. Yetilish*
- E. O'sish, ko'payish va differensirlanish
- F. Spermogenez*

71. Ovogenezning ko'payish davri...

- A. odamda embrional rivojlanishdagina ro'y beradi*
- B. qizaloq tug'ilishi bilan boshlanadi
- C. ko'payish embriogenezning 6 oyidan boshlanadi
- D. embriogenezning 6 oyidan 1-lamchi jinsiy hujayraning mitoz bo'linishi to'xtaydi*
- E. yangi tug'ilgan qizaloqda 2 million ovogoniy bo'lib, u bo'linishda davom etadi
- F. yangi tug'ilgan qizaloqda 2 million ovogoniy bo'lib, so'ng u kamayib boradi*

72. Graff pufakchasi (Etilgan follikula). da ...

- A. Ovositlar ishlab chiqargan, suyuqlik bilan to'lgan
- B. Follikula ichida jinsiy garmon bo'ladi*
- C. Follikula ichida birinchi tartibli ovosit bo'ladi*
- D. Follikula ichida yetilgan davrdagi ovosit bo'ladi
- E. Graff pufakchasi hosil bo'lishi bilan, ovogenezning o'sish davri nihoyasiga yetadi*
- F. Follikulalar II-tartibdagi ovositlarni ushlaydi

73. Ovogenezning yetilish davrida quyidagilardan qaysilari bo'ladi

- A. Ovulyasiya ro'y berishi bilan bu jarayon boshlanadi*
- B. Graff pufakchasida bu jarayon ketadi
- C. Tuxumning yetilishi spermatozoid qo'shilishi bilan sodir bo'ladi*
- D. I-tartibli ovosit tuxum yo'liga tushadi
- E. Reduksion bo'linish sodir bo'ladi*
- F. 1 ta ovosit va 3 ta polosit hosil bo'ladi

74. Ovogenez o'sish davrida bo'ladi:

- A. kichik va katta o'sish farqlanadi*
- B. O'sish meyozi bo'linish profazasining boshlanishi bilan ifodalanadi*
- C. Tug'ilmasdanoq I-tartibli ovositlarga aylangan jinsiy hujayralar balog'atga yetguncha turadi*
- D. tez o'sish, sekin o'sish farqlanadi
- E. F. katta o'sishda jinsiy hujayra diploten holatda bo'ladi
- F. kichik o'sish jinsiy garmonlar ta'sirida ro'y beradi

75. Spermatogenezning o'sish davrida bo'ladi;

- A. "B" spermatogoniylarning bir necha marta bo'linishidan hosil bo'lgan hujayra o'sishga o'tadi*
- B. O'sishga o'tgan hujayra "A" spermatogoniy hosilasi
- C. O'sishda meyozi I-profazasi kechadi*
- D. O'sishda meiotik bo'linish kechadi
- E. O'sishda I-tartibli spermatosit hosil bo'ladi*

F. O'sish natijasida II-tartibli spermatosit hosil bo'ladi

76. Spermiogenezda bo'ladi:

- A. spermatid yadrosi kichiklashadi*
- B. spermatogoniy yadrosi kichiklashadi, xromatin zichlashadi
- C. zichlashgan yadro bir tomonga siljiydi*
- D. yadro spermatogoniyning o'rtasiga siljiydi
- E. sitoplazma tuzilmalari qayta joylashib, ortiqcha qismlari parchalanadi*
- F. Goldji kompleksi va lizosomalar, mitoxondriyalar hujayra old qismiga o'tib akrosoma hosil qiladi

77. Ovogenezdagi tuxum hujayrasining katta o'sishi ro'y beradi

- A. Bu jarayon jinsiy baloqatga o'tish bilan amalga oshadi*
- B. Jinsiy garmonlarga aloqasi yo'q
- C. Birinchi tartibli ovositlar yassi hujayralarga o'ralib premordial follikula nomini oladi*
- D. Ovositning yadrosi yiriklashadi, sariqlik to'planadi*
- E. Ovositning yadrosi zichlashadi
- F. Ovosit tuxumdonning bir chetiga suriladi, follikula hujayralari yassilashadi

78. Spermatogenez jarayonida jinsiy hujayra urug'don egri-bugri naylarining qanday hujayralari bilan aloqador bo'ladi?

- A. Oziqlantiruvchi hujayralar bilan*
- B. Sertoliy follikula hujayrasi bilan*
- C. Leydig hujayralari bilan
- D. Leydig, Sertoli va Graff hujayralari bilan
- E. Leydigning oziqlantiruvchi hujayralari bilan
- F. Nay asosida joylashgan yirik oziqlantiruvchi hujayralar bilan*

79. Embriogenezda sodir bo'ladigan jarayonlarning aniqlang

- A. O'q a'zolar kompleksining shakllanishi*
- B. Spermatogenez
- C. Urug'lanish*
- D. Ovogenez
- E. Maydalanish va blastulaning hosil bo'lishi*
- F. Spersiogenez

80. Urug'lanish:

- A. Tashqi, ichki bo'ladi*
- B. Urug'lanish faqat bachadonda sodir bo'ladi
- C. Tuxum yo'lining yuqori qismida bo'ladi*
- D. Spermatozoid harakati 20-40 mm./min.
- E. Spermatozoid 2-4mm./min. tezlikda harakatlanadi*
- F. Spermatozoidning soni urug'lantirish ehtimolini belgilamaydi

81. Urug'lanish jarayonida farqlanadi ...

- A. Ikki bosqich*
- B. Uch bosqich
- C. Xemotoksis, reotoksis
- D. Singamiya va koreogamiya*
- E. Ikki bosqich bo'lib, ular xemotoksis va kareogamiyadir
- F. Ikki bosqich - singamiya va kareogamiya*

82. Maydalanishga hoslik:

- A. Zigota meyoza usulida bo'linadi
- B. Zigota mitoz usulida bo'linadi*
- C. Bo'linish natijasidagi hosila hujayralar o'sadi
- D. Bo'lingan sari hujayralar maydalanib boradi*

- E. Maydalanish natijasidagi hujayralar bir-biriga zich joylashadi*
- F. Blastomer ko'pincha ayrim-ayrim to'plamlar hosil qiladi

83. Mavjudotlar tuxum hujayrasidagi sariqlik miqdoriga ko'ra qanday maydalanish xillari bor?

- A. Goloblastik*
- B. Meroblastik*
- C. Diskoidal*
- D. Goloblastik va sentrolesital
- E. Birlamchi, ikkilamchi izolesital
- F. Telolesital, diskoidal, meroblastik, goloblastik

84. Somatik embriogenez nima va u qaysi hayvonlar uchun harakterli?

- A. Tananing aloxida bir qismidan butun bir organizmning hosil bo'lishi (amfibiylar)
- B. Organizmning partenogenez yo'li bilan hosil bo'lishi (sudralib yuruvchilar)
- C. Tananing bir qismidan butun bir organizmning hosil bo'lishi (gidra, dengiz yulduzlari)*
- D. Planariyada ko'zatiladigan regenerasiyaning bir turi*
- E. Yassi chuvalchanglarda ko'zatiladigan regenerasiyaning bir turi*
- F. Sut emizuvchilarda ko'zatiladigan tananing bir qismidan butun bir organizmning hosil bo'lishi

85. Gastrulyasiyaning qanday tiplari farqlanadi?

- A. Delyaminasiya va epiboliya*
- B. Delyaminasiya va Singamiya
- C. Totipotensiya, Epiboliya, Delyaminasiya
- D. Invaginasiya*
- E. Immigrasiya*
- F. Rivojlangan epiboliya va totipotensiya

86. Urug'lanishda bo'ladigan jarayonlarni to'g'ri ko'rsatig.

- A. Jinsiy hujayralar bir-biriga qarab harakatlanadi
- B. Singamiya bo'ladi*
- C. Jinsiy hujayralar yadrolari qo'shilib kareogamiya bo'ladi*
- D. Spermatozoidlarning tuxum hujayra qobig'i orqali kirishi bilan kareogamiya bo'ladi
- E. Jinsiy hujayralar qo'shilib oldin kareogamiya so'ng singamiya bo'ladi
- F. Jinsiy hujayralar qo'shilib oldin singamiya so'ng kareogamiya bo'ladi*

87. Urug'lanishda ...

- A. Tuxumning spermatozoidga tekkan yuzasida urug'nish do'mbog'i hosil bo'ladi*
- B. Spermatozoidda urug'lantirish do'mboqi paydo bo'ladi
- C. Spermatozoid qismlari tuxum hujayraga kirishi bilan uning yadrosida o'zgarishlar sodir bo'ladi
- D. Urug'lantirgan spermatozoid yadrosida odam tuxum hujayrasida so'nggi reduksion tana hosil bo'lmaguncha o'zgarish bo'lmaydi*
- E. Tuxum hujayra va spermatozoid pronuklyuslari o'z qobig'ini yo'qotib bir - biriga jipslashadi*
- F. Ikki jinsiy hujayra yadro qobig'ini saqlagan holda qo'shiladi - diploid xolatini tiklagan zigota hosil bo'ladi

88. Blastula bu ...

- A. Maydalanish nixoyasida hosil bo'lgan murtak pufakchasi*
- B. Tashqi devori blastoderma bo'lgan blastosel
- C. Ichki bo'shlig'i, ya'ni blastoseli bo'lgan pufakcha*
- D. Blastomerleri to'plam-to'plam joylashgan, blastoselga ega pufakcha
- E. Blastosel va bir yoki ko'p qavatli hujayralardan iborat blastodermasi bo'lgan pufakcha*
- F. Blastoseli ko'p qavatli, blastodermasi esa bir qavat bo'lgan pufakcha

89. Qanday mavjudotlarda qaysi xil maydalanish ro'y beradi?

- A. Lensesnik va sut emizuvchilarda meroblastik
- B. Baliq va amfibiylarda meroblastik*

- C. qushlarda va odamda diskoidal
- D. Ayrim sudralib yuruvchilar va qushlarda diskoidal*
- E. Lansetnik va baliqlarda goloblastik
- F. Sut emizuvchi va lansetnikda goloblastik*

90. Sut emizuvchilarda maydalanishning o'ziga xosligi

- A. O'ziga xoslik yo'q
- B. Lansetnikka o'xshash maydalanish ro'y beradi
- C. Dastavval bir tekis maydalanish sodir bo'ladi*
- D. Goloblastik maydalanishdan so'ng blastomerlarda bo'linish jadalligi farqlanadi*
- E. Avval meroblastik maydalanish bo'lib, so'ng sinxron bo'linish sodir bo'ladi
- F. Trofoblas va embrioblaslar hosil bo'ladi

91. Gastrulyasiya nima?

- A. Blastula hujayralarining siljishi va o'zaro ta'siri bilan ikki qavatli murtak hosil bo'lishi*
- B. Embrional varaqlar hosil bo'ladigan jarayon*
- C. Blastuladagi murakkab o'zgarish natijasida o'k a'zolar kompleksining hosil bo'lishi
- D. O'q a'zolar kompleksi va embrional varaqlarning yuzaga kelishi
- E. Mezoderma va entodermaning hosil bo'lishi
- F. Murakkab jarayon bo'lib, embrional varaqlarning hosil bo'lishi*

92. Gastrulyasiya xillariga tegishli bo'lmagan javoblarni aniqlang

- A. Delyaminasiya
- B. Singamiya*
- C. Totipotensiya*
- D. Invaginasiya
- E. Immigrasiya
- F. Poligamiya*

93. Gastrulyasiya jarayonida nimalar sodir bo'ladi ?

- A. Blastoderma botib, blastula hosil bo'ladi
- B. Blastodermaning bir chekkasi botib, gastrosel hosil bo'la boshlaydi*
- C. Botiqlikda ikkilamchi og'iz hosil bo'ladi
- D. Botiqlikda birlamchi og'iz hosil bo'ladi*
- E. Blastopor hosil bo'ladi*
- F. Yo'qori va pastki lablari bo'lgan ikkilamchi og'iz hosil bo'ladi

94. Blastopor nima?

- A. Blastoderma bir qismining botishidan hosil bo'lgan joy*
- B. U birlamchi og'iz
- C. U ikkilamchi og'iz
- D. Birlamchi og'izlilarda og'izga aylanadigan tuzilma*
- E. Ikkilamchi og'izlilarda anal teshikka aylanadigan tuzilma*
- F. Yuqori va paski labga ega bo'lgan axamiyasiz tuzilma

95. Epiboliya ko'proq rivojlangan:

- A. Sut emizuvchilarda
- B. qushlarda
- C. Sudralib yuruvchilarda
- D. Ayrim baliqlarda*
- E. Baqalarda*
- F. Tritonlarda*

96. Mavjudotlarda mezodermaning hosil bo'lishida quyidagilarning qaysilari bo'ladi?

- A. Teloblastik*
- B. Xronoblastik

- C. Teloblastik va geteroblastik
- D. Enterosel*
- E. Xronoblastik va enterosel
- F. Enterosel va teloblastik*

97. Sudralib yuruvchilarda mezoderma hosil bo'lishida ishtirok etadi:

- A. Entoderma*
- B. Faqat ektoderma
- C. Faqat entoderma
- D. Ektoderma*
- E. Trofoblast va neyrobblast
- F. ham entoderma, ham ektoderma*

98. Embrional varaqlar va ularning murtak rivojidadagi ahamiyatini o'tgan asrda kim ko'rsatgan?

- A. I. Mechnikov
- B. A. O. Kovalevskiy
- C. Volf*
- D. Ber*
- E. B. O. Kovalevskiy va Ber
- F. Volf va Ber*

99. Embrional evolyusiyaning asoschilarini to'g'ri ko'rsatig

- A. A. O. Kovalevskiy*
- B. Volf va A. O. Kovalevskiy
- C. Ber
- D. Mechnikov*
- E. Mechnikov va Ber
- F. A. O. Kovalevskiy va Mechnikov*

100. Gistogenez va organogenez quyidagi jarayonlar natijasida sodir bo'ladi:

- A. Embrional varaq hujayralarining murakkab o'zaro ta'siri bilan*
- B. Totipotentlik natijasida
- C. Hujayralarning murakkab siljishi bilan*
- D. Hujayralarning tez bo'linib, nobud bo'lishi bilan
- E. Hujayralarning ko'payishi va o'sishi natijasida*
- F. Hujayralar migrasiyasi bo'lmasligi va faqatgina ularning differensirlanishi natijasida

101. Nerv nayining hosil bo'lishi qanday jarayonlar tufayli ro'y beradi?

- A. Umuman gastrulyasiya jarayonida biror qism hujayrasi organizm turli qismlarini hosil qiluvchilariga ta'sir etadi*
- B. Induksiya natijasida kechadi*
- C. Xordomezoderma entodermaga ta'sir etadi
- D. Mezoderma ektoderma bilan aloqada bo'ladi
- E. Xordomezoderma ektodermaga ta'sir etadi*
- F. Embrioblast va trofoblastlarning o'zaro ta'siridan

102. Mezodermada qanday somitlar farqlanadi?

- A. Sklerotom, dermatom*
- B. Splanxnotom, xordomezodermatom
- C. Xordomezodermatom
- D. Miotom*
- E. Sterroblastom, nefrotom
- F. Nefrotom, splanxnotom*

103. Sklerotom va dermatomlarning hosilasi nima?

- A. Suyaklar va teri epidermisi

- B. Suyaklar*
- C. Teri
- D. Terining derma qavati*
- E. Biriktiruvchi to'qima va tayanch sistemasi
- F. Terining derma qavati va suyaklar*

104. Nefrotom va splanxnatomning hosilalarini ko'rsatig.

- A. Ayiruv a'zolari va ichki a'zolar
- B. Ayiruv a'zolari va parietal, viseral varaqchalar
- C. Selom va buyrak
- D. Ayiruv a'zolari*
- E. Ayiruv a'zolari va ichki a'zolari qoplovchi pardalar*
- F. Ichki a'zolarining tashqi yuza pardalari*

105. Entodermaning hosilalarini belgilag.

- A. O'pka, traxeya*
- B. O'pka, ichak, jigar*
- C. Hazm nayi, qalqonsimon bez, timus*
- D. Gipofiz orqa bo'lagi, timus, qalqonsimon bez
- E. Hazm nayi, gipofizning oldingi bo'lagi, oshqozon osti bezi
- F. Jigar, oshqozon osti bezi va ichki sekresiya bezlari

106. Murtakning o'q (asosiy) a'zolar kompleksiga nimalar kirishini ko'rsating?

- A. Ektoderma, mezoderma, xordomezoderma tuzilmalari
- B. Entoderma, xorda*
- C. Mezoderma, nerv nayi*
- D. Ektoderma
- E. Embrioblast, trofoblast, xorda*
- F. Embriyon varaqchasi, provezor a'zolar, xorda, nerv nayi

107. Murakkab umurtqalilarda qanday provezor a'zolar bo'ladi?

- A. Amnion*
- B. Sariqlik xaltachasi*
- C. Allantois va xorion*
- D. Faqatgina amnion va xorion
- E. Faqatgina sariqlik xaltachasi, allantois va xorion
- F. Faqatgina amnion, allantois va xorion

108. Amnion nima?

- A. Murtakni bir tomonlama qoplagan tuzilma
- B. Murtakni o'rab turgan suyuqlikni to'plagan embrionning doimiy a'zosi
- C. Ektodermadan vujudga kelgan provezor organ*
- D. Murtakni yuvib turuvchi tuzilma*
- E. Baliq va qushlarga xos tuzilma
- F. Sudralib yuruvchi, qush va sut emizuvchilarga xos tuzilma*

109. Sariqlik xaltachasi:

- A. Baliq va sudralib yuruvchilarda ektoderma va mezoderma
- B. Baliq, amfibiyalarda sariqlik xaltachasining devori uchchala embrional varaqdan tashkil topgan*
- C. Sariqlik xaltachasining devoridagi hujayralar sariqlikni parchalab, rivojlanayotgan embrionga ozuqa yetkazadi*
- D. Sariqlik xaltachasi birlamchi jinsiy hujayra hosil bo'ladigan joydir*
- E. Sariqlik xaltachasini to'plagan mezoderma embrionning qon hosil qiladigan asosiy organlaridan biri*
- F. Xaltacha barcha xordalilarda bir xil tuzilgan

110. Xorion:

- A. Murtak va uning atrofidagi muhit o'rtasidagi modda almashinuvini ta'minlaydi*
- B. Xorion murtakning asosiy a'zolaridan biri
- C. Xorion sudralib yuruvchilarda yo'ldosh hosil qiladi
- D. Xorion sut emizuvchilarda yo'ldosh hosil bo'lishida ishtirok etadi*
- E. Xoriondan hosil bo'lgan plasenta homilani faqat ozuqa bilangina ta'minaydi
- F. Xorion qismidan hosil bo'lgan plasenta homilani ozuqa, nafas bilan ta'minlab, gormon hosil qiladi*

111. Sut emizuvchilar blastulasining o'ziga xosligi..

- A. Blastoderma deyarli bir xil kattalikdagi embrioblastlardan iborat
- B. Blastoderma trofoblastlardan iborat*
- C. Blastosista bo'shlig'i notekis*
- D. Blastulada o'ta och embrioblast hujayralar bo'ladi
- E. Oqimtir embrioblastlar bor
- F. Blastosistada to'q embrioblast va och rangli trofoblastlar bo'ladi*

112. Xorion qismidan yo'ldoshning hosil bo'lishi qanday bo'ladi?

- A. Trofoblast ba'zan shilliq qavatiga o'z so'rg'ichlari bilan buzib kiradi
- B. Trofoblast o'sib 2 qavat, ya'ni sitotrofoblast, embrioblast hosil qiladi
- C. Trofoblast sinsitotrofoblast va sitotrofoblast hosil qiladi*
- D. Trofoblast hosil qilgan so'rg'ichlar bo'shlig' hosil qiladi*
- E. Trofoblast hosil qilgan bo'shliq oziqlantiruvchi shilliq bilan to'ladi
- F. Trofoblast hosil qilgan bo'shliq ona qoni bilan to'ladi*

113. Sutmizuvchilarda yo'ldoshtuzilishigako'ra, ya'nionaqoninihomilaqonidanajratuvchi qavatlarga binoan qanday tiplarga bo'linadi?

- A. Gemoxorial (odamda)*
- B. Eptelioxorial (cho'chqada)*
- C. Endotelioxorial (odamda).
- D. Sindismoxorial (qoramollarda)*
- E. Dismoxorial (cho'chqada)
- F. Entotelioxorial (itlarda)*

114. Totipotent hujayralar nima?

- A. Embriogenez davomida hosil bo'lgan ayrim hususiyatli hujayralar
- B. Nerv sistemasi va analizatorlarni hosil qiluvchi hujayralar
- C. Differensirlashgan blastomerlar guruxi
- D. Embriogenezning ma'lum bir ilk bosqichida hosil bo'lgan hujayralar*
- E. Blastomer xolidagi, bir-biridan farq qilmaydigan hujayralar*
- F. Embriogenezning ilk bosqichida hosil bo'lgan genetik jixatdan bir xil hujayralar*

115. Embriogenez jarayonida hujayralarda qanday jarayonlar sodir bo'ladi?

- A. Genetik, morfologik differensirlanish*
- B. Morfologik, biokimyoviy differensirlanish*
- C. Fiziologik differensirlanish*
- D. hujayralarning yiriklashishi
- E. hujayralarning to'planib borib differensirlanishi
- F. Totipotent hujayralarning ortib borishi

116. Ontogenez jarayonida hujayralarning differensirlanish jarayoni tiriklikning asosan qanday hayotiy darajasida sodir bo'ladi?

- A. Molekulyar-genetik*
- B. Molekulyar*
- C. Organizm
- D. hujayra, tug'ima*
- E. Biogeosenoz
- F. Biosfera

117. Embriogenez jarayonida differensirlanayotgan hujayralarda qanday genlar o'z ifodasini topadi?

- A. O'ziga xoslikni ta'minlovchi genlar*
- B. Umumiy sifat belgilariga egaligini ta'minlovchi genlar*
- C. Jinsni belgilovchi genlar
- D. Jinsni va o'ziga xoslikni belgilovchi genlar*
- E. Umumiy sifat belgisini va totipotentlikni belgilovchi genlar
- F. Modda almashinuvini ta'minlovchi fermentlarni xamda xususiylikni ta'minlovchi jarayonlarni ta'minlovchi genlar*

118. Embriogenez jarayonida hujayralarda taxassuslanishning boshlanishi bilan qanday jarayonlar sodir bo'ladi?

- A. hujayra bo'linishi susaydi*
- B. hujayra bo'linishi tezlashadi
- C. hujayraning bo'linish oraliqi cho'ziladi*
- D. hujayraning bo'linish oraliqi qisqaradi
- E. hujayraning differensirlanish jarayoni kuchayadi*
- F. Differensirlanish jarayoni

119. Rivojlanayotgan murtak qismlarining o'zaro ta'sirini, yadrosi somatik hujayra yadrosiga almashtirilgan tuxum hujayrasining faollashishini xamda hujayralarning epigenetik ta'sirini ifodalovchi tajribalarni kimlar o'tkazgan?

- A. Gordon*
- B. Shpeman*
- C. M.Zavarskiy*
- D. Gordon, Mechnikov, A.O.Kovalevskiy
- E. Mechnikov
- F. A.O.Kovalevskiy

120. Oqsil tabiatli gormonlarning ta'sir etish mexanizmi qanday amalga oshadi ?

- A. Gormon hujayra yuzasidagi reseptor bilan birikadi va gormon-reseptor kompleksini hosil qiladi*
- B. Gormoreseptor adenelatsikloza fermentini faollashtiradi*
- C. Faollashgan adenelatsikloza siklik ATF qonsentrasiyasini oshirib, hujayrani faollashtiradi*
- D. Gormon to'g'ridan-to'g'ri hujayraga kirib ta'sir ko'rsatadi
- E. Gormon hujayra ichida gormon-reseptor birikmasini hosil qiladi
- F. Gormoreseptor birikmasi yadro ichiga kirib transkripsiya faolligini kuchaytiradi

121. Steroid gormonining hujayra faoliyatiga ta'sir etish mexanizmi qanday bo'ladi?

- A. Gormon hujayra yuzasidagi reseptor bilan birikadi va gormon-reseptor kompleksini hosil qiladi
- B. Gormoreseptor adenelatsikloza fermentini faollashtiradi
- C. Faollashgan adenelatsikloza siklik ATF qonsentrasiyasini oshirib, hujayrani faollashtiradi
- D. Gormon to'g'ridan-to'g'ri hujayraga kirib ta'sir ko'rsatadi*
- E. Gormon hujayra ichida gormon-reseptor birikmasini hosil qiladi*
- F. Gormoreseptor birikmasi yadro ichiga kirib transkripsiya faolligini kuchaytiradi*

122. Organizm rivojlanishidagi qaltis davrlar va ularning muddati qanday?

- A. Implantasiya (6-7 hafta).
- B. Implantasiya (6-7 kun)*
- C. Yo'ldoshning hosil bo'la boshlashi (2-xafta oxiridan boshlanadi)*
- D. Plasantasiya (2-oy oxirida boshlanadi)
- E. Tug'ilish (e'tiborni talab etuvchi muxim qaltis davr)*
- F. homilada muvaqqat a'zolarining shakllanishi bilan bog'liq qaltis davr

123. O'lim nima va uning qanday xillari farqlanadi?

- A. O'lim individ mavjudligining so'nggi bosqichi*
- B. Modda almashish va tiplanish jarayonlarining so'nib, hujayralarda qaytmas

o'zgarishlarning ro'y berishi*

- C. Biologik o'lim, vaqtincha o'lim
- D. Klinik o'lim, biologik o'lim*
- E. Muqarrar o'lim, muvaqqat o'lim
- F. Klinik o'lim, vaqtincha o'lim, biologik o'lim

124. Reparativ regenerasiya nima bilan ifodalanadi ?

- A. Organizm hayoti davomida hujayralarning yemirilib, qayta hosil bo'lishi
- B. Organizm hayoti davomida yemirilgan molekulalar qayta hosil bo'ladi
- C. Organizm hayoti davomida turli molekula va hujayra xamda uning qismlarining yemirilib qayta hosil bo'lish bir xil darajada bo'lmaydi
- D. Biror salbiy ta'sir natijasida molekulalarning yemirilishi va tiklanishi tezlashadi*
- E. To'qima yoki a'zolar jaroxatlanganidan so'ng tiklanadi*
- F. Regenerasiya jarayonining darajasi salbiy ta'sir kuchiga bo'lib, o'ladi*

125. Organizm hayoti davomida yemirilishi va qayta hosil bo'lish jadalligiga ko'ra qanday hujayralar tafovut etiladi ?

- A. Labil - turg'un bo'lmagan*
- B. Stabil - o'ta turg'un
- C. Stabil - turg'unroq*
- D. Statik - o'ta turg'unlikka ega
- E. Statik - turg'un*
- F. Tuz almashuvchi, ya'ni statik

126. Regenerasiyaning xillari (shakllari) to'g'ri ko'rsatilgan javoblarni belgilang.

- A. Fiziologik*
- B. Fiziologik va patologik
- C. Patologik
- D. Gomomorfoz va induksion regenerasiya
- E. Reporativ*
- F. Fiziologik va reparativ*

127. Fiziologik regenerasiya nima bilan ifodalanadi?

- A. Organizm hayoti davomida hujayralarning yemirilib, qayta hosil bo'lib turishi*
- B. Organizmning hayoti davomida yemirilgan molekulalar qayta hosil bo'ladi*
- C. Organizm hayoti davomida turli xil molekula va hujayralarning yemirilib qayta hosil bo'lishi bir xil darajada bo'lmaydi*
- D. Biror salbiy ta'sir natijasida molekulalarning yemirilishi va tiklanishi tezlashadi
- E. Regenerasiya jarayoni ta'sir kuchiga bog'lik bo'ladi
- F. Fiziologik regenerasiya sog'lom organizmda kuchli ro'y beradi

128. Reparativ regenerasiyaning to'g'ri tiplarini belgilag.

- A. Gomomorfoz*
- B. Morfolaksis
- C. Aromorfoz va gomomorfoz
- D. Gomomorfoz va geteromorfoz*
- E. Geteromorfoz*
- F. Geteromorfoz, gomomorfoz va epimorfoz

129. Regenerasiya hujayralardagi qanday jarayonlar bilan amalga oshadi?

- A. Ko'pincha hujayralar keskin kamayib, maydalashib ketadi
- B. hujayralar ko'proq nobud bo'ladi
- C. Organoidlar kamayib, maydalashib ketadi
- D. hujayralar ko'payadi*
- E. hujayralar yiriklashadi*
- F. Organoid va hujayralarning giperplaziyasi va gipertrofiyasi sodir bo'ladi*

130. Transplantasiyaning xillarini to'g'ri bo'lgan xillarini ko'ratig.

- A. Golotransplantasiya
- B. Kserotransplantasiya
- C. Gomotransplantasiya*
- D. Ksenotransplantasiya*
- E. Izotransplantasiya*
- F. Kserotransplantasiya, izotransplantasiya, golotransplantasiya

131. Jonzotlarning o'rtacha umri qancha?

- A. Kaptarlarning 16 yil
- B. Kaptarlarning 40-50 yil*
- C. Baqalarning 40-50 yil
- D. Baqalarning 16 yil*
- E. Kalamushning 2-3 yil*
- F. Kalamushlarning 4-5 yil

132. Qarishning turli xil nazariyalarining belgilang?

- A. Molekulyar - genetik*
- B. hujayraviy*
- C. Adaptasiya - boshqarilishi*
- D. Mutasiyaga uchragan qismlarning to'planishi natijasida, genomning o'zgarishi bilan tushintiriladigan nazariya
- E. Genetik - boshqarilishi
- F. Qarilik - bu organizmning genetik materialida programmashtirilgan jarayon nati jasida yuzaga keladi deb tushintiriladigan nazariya

133. Odamlarda qanday yoshlar farqlanadi?

- A. Xronologik yosh*
- B. Organizmning fiziologik va genetik xususiyatlari bilan ta'minlanadigan - biologik yosh*
- C. Organizmning fiziologik va genetik o'ziga xos tomonlariga bog'liq bo'lgan - xronologik yosh
- D. Organizmning tug'ilganidan boshlab o'limigacha bo'lgan davr bilan aniqlanadigan - biologik yosh
- E. Tuqilganidan boshlab o'limigacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga olgan kalendar yosh*
- F. Fiziologik, biologik va kalendar yosh*

134. Qarilik nima?

- A. qarilik - organizmda asta-sekin ro'y beradigan patologik jarayon
- B. Ontogenezning so'nggi bosqichi*
- C. Muqarrar ro'y beradigan, har bir kishida har xil darajada kechadigan jarayon*
- D. qarilik - davolash qiyin bo'lgan kasallik
- E. qarilik qonuniy jarayon bo'lib, turli, xilma-xil sabablarga ega bo'lgan murakkab jarayon*
- F. Inson umrining nixoyasida bo'ladigan murakkab fiziologik jarayon

135. Organizmning o'sish, rivojlanish va qarish xamda qari organizm xususiyatlarini o'rganuvchi ta'limotlar va undagi ayrim o'zgargan xolatlar nima?

- A. Akselerasiya va degenerasiya
- B. Akromegaliya va pirogeriya
- C. Pirogeriya*
- D. Gerontologiya va va akromegaliya
- E. Gerontologiya*
- F. Geriatriya*

136. Transplantasiya muvaffaqiyatli bo'lishi uchun qanday ishlar qilinishi zarur?

- A. Transplantant immunkompetent tuzilmalar mo'l joyga o'rnatilishi lozim
- B. Transplantant immunkompetent hujayralar yetib bormaydigan joyga o'rnatilishi lozim*
- C. Donorga immundipressant ta'sir ettirib, resipientning immun xolati kuchaytirilishi lozim

- D. Donorga immundipressant berish lozim*
- E. Immunologik tolerantlikni vujudga keltirish lozim*
- F. Organizmning immun xolatini kuchaytirish lozim

137. Hujayraviy va gumoral immun hususiyatlarining strukturaviy asosini qanday hujayralar ta'minlaydi?

- A. Fabrisiy xaltachasiga bog'liq bo'lgan T limfositlar
- B. Fabrisiy xaltachasiga bog'liq bo'lgan B limfositlar*
- C. T va B limfositlarning turli xil subpopulyasiyalari*
- D. Faqatgina T limfositlar subpopulyasiyalari
- E. Esda saqlovchi limfositlar*
- F. T limfositlar ishlab chiqargan antitelolar

138. Immun sistemasi gomeostazini ta'minlovchi markaziy a'zolarni belgilag.

- A. Timus*
- B. Taloq
- C. Suyak ko'migi*
- D. Limfatik tugunlar
- E. Fabrisiy xaltachasi*
- F. Limfoid tug'imalar

139. Immun sistemasi gomeostazini ta'minlovchi periferik immun a'zolarni belgilag.

- A. Timus
- B. Taloq*
- C. Suyak ko'migi
- D. Limfatik tugunlar*
- E. Fabrisiy xaltachasi
- F. Limfoid to'qimalar*

140. Organizm gomeostaz boshqarilishi poqonalarining tartibini to'g'ri belgilag.

- A. Hujayra darajasida va hujayra ustki boshqarish poqonasi *
- B. To'qima darajasida boshqarilishi
- C. Talamus va oliy nerv sistemasi orqali boshqarilishi
- D. Gipotalamus orqali boshqarilishi*
- E. Epifiz faoliyati bilan boshqarilishi
- F. Gipofiz faoliyati bilan va oliy nerv sistemasi orqali boshqarilishi*

141. Ontogenezning postnatal davri ifodalanadi:

- A. Tuqilgandan (tuxumdan chiqqandan) keyingi o'sishi*
- B. Voyaga yetish*
- C. qarish va o'lim*
- D. Organizmning postnatal degenerasiyasi
- E. Organizmning akselerasiyasi
- F. Organizmning ulg'ayib, progeriyaga uchrashi

142. Postnatal davrning bosqichlarini ko'rsatig.

- A. Yuvenil*
- B. Akselerat
- C. Progeriya
- D. qarish*
- E. Pubertat*
- F. Yuvenil va progeriya

143. Postnatal ontogenezda o'sish sur'ati qanday bo'ladi?

- A. Ilk davrda o'sish jadal bo'ladi*
- B. Ilk davrda o'sish anchagina sust bo'ladi
- C. Jadal ush jarayoni borgan sari susayib boradi*

- D. O'sish sur'ati va uning susayishi rivojlanishning turli bosqichlarida bir xil bo'lmaydi*
- E. O'sish jarayoni differensirlanish jarayoni bilan birgalikda kechmaydi
- F. Rivojlanishda hujayralar differensirlanishi natijasida hujayra bo'linishi tezlashadi

144. Akselerasiya nima, u qanday ro'y beradi?

- A. Organizmning tez o'sishi
- B. ichki membrana kristalarga ega*
- C. ichi gamogen modda - matriks bilan to'lib turadi*
- D. o'z oqsillarini sintezlay oladi*
- E. asosiy funksiyasi oqsillarni sintezlash
- F. tashqi membranasini kristalarga ega
- G. hujayra faoliyati uchun zarur lizosomalar hosil qiladi
- H. yadrochada shakllanib, sitoplazmaga chiqadi

406. Hujayra membranasida Ca, K, Na ionlari nasosi jarayonlari asosida nimalar ro'y berishini belgilang:

- A. mushaklarda qisqarish*
- B. sekresiya jarayoni*
- C. hujayralarda qo'zg'alish*
- D. nervlar bo'ylab qo'zg'alishning o'tkazilishi*
- E. glikoliz amalga oshadi
- F. antigen va antitanalarni hosil bo'lishi
- G. tuzlar parchalanadi
- H. qo'zg'alishni qabul qilish va uni o'tkazib berish bo'ziladi

407. Mitozning telofazasida kuzatiladigan jarayonlarni ko'rsating:

- A. xromatidalar qutblarga yetib boradi*
- B. yadrocha tiklanadi*
- C. xromosomalar qutblarga tarqaladi
- D. xromatidalar despirallashadi*
- E. yadro qobig'i paydo bo'ladi*

- F.xromosomalar spirallashadi
- G.yadrocha yo'qoladi
- H.xromosomalar yo'g'onlashadi

408.Mitotik siklning to'rtta davrini ko'rsating:

- A.presintetik*
- B.sintetik*
- C.postsintetik*
- D.mitoz*
- E.profaza
- F.metafaza
- G.anafaza
- H.telofaza

409.Geterosintetik interfazada qanday jarayonlar sodir bo'lishini belgilang:

- A.hujayra o'sadi*
- B.hujayrada biosintetik jarayonlar a'zo yoki organizm uchun moddalar ishlab chiqarishiga qaratilgan bo'ladi*
- C.hujayrada taxassuslashish jarayonlari ro'y beradi*
- D.hujayra uziga xos faoliyatni bajarishga loyiq bo'lgan hujayraga aylanadi*
- E.hujayrada bulinishga tayyorgarlik kuchayadi
- F.o'zini ko'paytirish(mitoz)gagina qaratilgan jarayon bilan band bo'ladi
- G.asosan DNK sintezi ro'y beradi
- H.hujayra o'sishdan to'xtaydi

410.Politeniyada kuzatiladigan o'zgarishlar va qanday hujayralarda politeniya kuzatilishini belgilang:

- A.politeniyada xromosomaning nozik strukturasi-xromonemalar bir necha yuz marta ortadi,ayrim xollarda 1000 marta va undan ham ortishi mumkin*
- B.xromonemalar soni oshgani bilan, xromosomalar soni oshmaydi*
- C.politeniya qo'shqanotlilarning so'lak bezlari hujayralarida kuzatiladi*
- D.politeniyada xromosomani birlamchi ipini reproduksiyasidan tashqari, mitotik siklni boshqa fazalari kuzatilmaydi*
- E.xromosomalar juda katta(gigant) o'lchamga ega bo'lib qoladi*
- F.politeniya hamma organizmlarda kuzatiladi
- G.politeniyada mitotik siklni hamma fazalari kuzatiladi
- H.politeniyada xromosomalar soni oshadi

411.Endomitoz uchun harakterli bo'lgan belgilarni ko'rsating:

- A.endomitozda xromosomalar reproduksiyasidan keyin, hujayralarning bo'linishi kuzatilmaydi*
- B.endomitozda xromosomalar sonini ayrim hollarda diploid to'plamga nisbatan un baravar oshishi kuzatiladi*
- C.endomitoz poliploid hujayralarning yuzaga kelishiga olib keladi*
- D.endomitoz jadal ishlovchi hujayralarda kuzatiladi*
- E.endomitoz nerv hujayralarda kuzatiladi*
- F.xromosomalar aniqlanmaydi va teng taqsimlanishi kuzatilmaydi
- G.endomitozda yadrosiz hujayralar yuzaga keladi
- H.xromosomalar juda katta(gigant) o'lchamga ega bo'ladi

412.Allelmas genlarning uzaro ta'sir xillarini ko'rsating:

- A.kommensallik
- B.komplementarlik*
- C.penetrantlik
- D.polimeriya*
- E.ekspressivlik
- F.epistaz*

G.epimorfoz
H.geteromorfoz

413. Jaroxatlangan DNK molekulasi tikanishida qanday fermentlar qatnashadi:

- A.endonukleaza*
- B.ekzanukleaza*
- C.polimeraza*
- D.ligaza*
- E.lipaza
- F.pepsin
- G.tripsin
- H.transferaza

414. Gen injeneriyasining bosqichlarini ko'rsating:

- A.kerakli xromosomani o'lchash
- B.kerakli genni ajratish*
- C.kerakli genni vektorga ulash*
- D.kerakli gen ulangan DNKni hujayraga kiritish*
- E.kerakli hujayrani ajratib olish
- F.kerakli genomni vektorga ulash
- G.kerakli organni tanlash
- H.kerakli organizmning immunitetini kuchaytirish

415.Biotexnologiya jarayonlaridan qaysi soxalarda keng foydalaniladi:

- A.mikrobiologiya sanoatida*
- B.hayvonlar seleksiyasida*
- C.xalq urf-odatlarini o'rganishda
- D.duradgorlik sanoatida
- E.televideniya sanoatida
- F.oziq - ovqat sanoatida*
- G.radio sanoatida
- H.o'simliklar seleksiyasida*

416.Gen injeneriyasi bo'yicha mo'ljallangan maqsadga erishish uchun qanday masalalarning hal qilish kerak:

- A.har-xil organizmlardan olingan DNK molekulasi mayda bo'laklarga ajratish*
- B.genlar ichida keraklisini topib, shu genni tashib yuruvchi vektorga birlashtirish*
- C.DNK sida kerakli gen bo'lgan vektorni hujayraga kirgizish*
- D.ko'pgina hujayralar orasidan ko'chirib o'tkazilgan genni olgan resipient hujayralarni ajratish*
- E.har-xil organizmlardan olingan DNK molekulalarini birlashtirish
- F.genlar ichida kerakmas bo'lganlarini ajratib, hujayradan chiqazib tashlash
- G.ikki xil hujayraning bir-biriga birlashtirish.
- H.hujayra yadrosiga yangi qo'shimcha xromosomalar kiritish.

417.Mendel tomonidan ishlab chiqilgan duragaylash metodini asosiy holatlarini(mohiyatini).belgilang:

- A.chatishitirish uchun olingan organizmning hamma belgilari bir vaqtda hisobga olinadi
- B.tajriba uchun olingan organizmning hamma belgilari bir vaqtda hisobga olinmaydi*
- C.faqat ayrim alternativ belgilarning irsiylanishi tahlil qilinadi*
- D.bir vaqtda hamma alternativ belgilarning irsiylanishi tahlil qilinadi
- E.har bir belgining bir necha avlod davomida irsiylanishi aniq hisoblanib chiqiladi*
- F.faqat birinchi avlodda yuzaga chiqqan belgilargina, bir necha avlod davomida irsiylanishi aniq hisoblanib chiqiladi
- H. faqat birinchi avlodda yuzaga chiqqan belgilargina aniq hisoblanib chiqiladi

418.Mutasion ta'limotda ilgari surilgan g'oyalarni ko'rsating ?

- A.mutasiyalar ayrim organizmlar uchun xosdir

- B.mutasiyalar jinsiy hujayralardagina paydo bo'ladi
- C.mutasiyalarni faqat tajribada olish mumkin
- D.mutasiyalar faqat tabiatda uchraydi
- E.o'xshash mutasiyalar takror paydo bo'lishi mumkin*
- F.mutasiyalar har xil ko'rinishda hosil bo'ladi*
- G.mutasiya natijasida hosil bo'lgan belgilar turg'undir*
- H.mutasiyalar to'satdan paydo bo'ladi*

419.Genotipning o'zgarish hususiyatiga qarab yuzaga keladigan mutasiya xillarini ko'rsating:

- A.gen mutasiyasi*
- B.plazmatik mutasiya
- C.sentrik mutasiya
- D.xromosoma mutasiyalar*
- E.allelomorf mutasiyalar
- F.modifikasion mutasiyalar
- G.genom mutasiyalar*
- H.simpatik mutasiya

420.Genom mutasiyalari tufayli yuzaga kelgan kasalliklarni ko'rsating:

- A.Daun*
- B.Klaynfeltr*
- C.Shereshevskiy-Terner*
- D.Patau*
- E.sindaktiliya
- F.gipertrixoz
- G.meningoensefaliya
- H.elliptositoz

421.Gen mutasiyalarini ko'rsating:

- A.daltonizm*
- B.gemofiliya*
- C.reversiya
- D.rekognisiya
- E.elongasiya
- F.sinergizm
- G.marfan sindromi*
- H.otoskleroz*

422.Bir tuxum hujayradan rivojlangan egizaklarda uchraydigan va konkordantligi 50 % dan yuqori bo'lgan belgilarni ko'rsating:

- A.sil kasalligi
- B.sochining rangi*
- C.qon guruxi*
- D.qilay ko'z
- E.aqliy zaiflik*
- F.qon bosimining oshishi
- G.revmatizm
- H.qizamik*

423.Ikkita tuxum hujayradan rivojlangan egizaklarda uchraydigan va konkordantligi 10 % dan kam bo'lgan belgilarni ko'rsating:

- A.qizamiq
- B.revmatizm*
- C.tutqanoq*
- D.qon guruxi
- E.ko'zning rangi

F.g'ily ko'z*
G. quyon lab*
H.teridagi naqshlar

424.Odam genetikasini rivojlantirishda qaysi olimlarning xizmati katta:

A.Daminov
B.Bochkov*
C.Mendel
D.Mechnikov
E.Davidenko*
F.Efroimson*
G.Ramashev*
H.Ivanovskiy

425.Patau kasalligida kuzatiladigan belgilarning ko'rsating:

A.kariotipdagi xromosomalardan 18-chisi ortiqcha
B.vazni va buyi juda kichik*
C.kamida 50 yil yashaydi
D.yuqori labida va tanglayida yoriqcha bor*
E.jinsiy bezlarda o'zgarish yo'q
F.asosiy triradius 180 ga teng*
G.bola vaqtdan oldin tug'iladi*
H.yurakda o'zgarish yo'q

426.Lipidlar almashinuvining buzilishi natijasida yuzaga keladigan kasalliklarni ko'rsating:

A.gangliozidoz*
B.mukopolisaharidoz
C.sfigomielikoz*
D.galaktozemiya
E.leykodistrofiya*
F.glyukoufebrozidoz
G.alkaptanuriya
H.pentozuriya*

427.Gemoglobinopatiya kasalligida kuzatiladigan belgilar:

A.qonning kislorodga to'yinmasligi*
B.albinizm
C.gipertrixoz
D.oltibarmoqlilik
E.kamqonlilik*
F.qon aylanishining buzilishi*
G.tromboz*
H.semizlik

428.Galoktozemiya kasalligida kuzatiladigan belgilarning ko'rsating:

A.qon ivimaydi
B.organizm galoktozani o'zlashtira olmaydi*
C.otoskleroz
D.jigar ishi bo'ziladi*
E.gipertrixoz
F.buyrak ishi bo'ziladi*
G.ixtioz
H.siydikda oqsil va aminokislotalar ko'p bo'ladi*

429. Tug`ilgan bolada ko'z gavharining tiniq bo'lmasligi sabablari va ushbu holat nimaga misol bo'lishi mumkin:

- A.resessiv irsiy kasallik*
- B.qizamiq kasalligini oqibati*
- C.onaning homilador paytida ionlashtiruvchi nurlar olganligi*
- D.fenokopiyaga misol*
- E.dominant irsiy kasallik
- F.sil kasalligini oqibati
- G.onaning homilador paytida og'ir yuk ko'targanligi
- H.genokopiyaga misol

430. Spermatogenez natijasida:

- A.har bir srermatogoniy diploid 4 ta spermatid hosil qiladi
- B.har bir spermatogoniy 4 ta gaploid to'plamli spermatid hosil qiladi*
- C.hosila spermatozoidlar "X" xromosomalarga tutadi
- D.hosila spermatozoidlar "Y" xromosomalarga egadirlar
- E.hosila spermatozoidlarning 2 tasi "X",2 tasi "Y" xromosomaga ega*
- F.hosila spermatozoidlarning har biri teng miqdorda "X"va"Y" xromosomalarga ega
- G.har biri xam uruglantira oladigan spermatozoidlar hisoblanadi*
- H.hamma spermatozoidlar ham urug'lantirish qobiliyatiga ega*

431.Birlamchi jinsiy hujayralar:

- A.faol migrasiya bilan jinsiy bezga kiradi
- B.sariqlik xaltachasi devoridagi qon tomirlar orqali jinsiy bezga o'tib,o'rnashadi*
- C.dastlab,jinsiy bezda ularning soni o'ta ko'p bo'lib,so'ng kamayadi
- D.birlamchi jinsiy hujayralar soni dastlab, kam bo'ladi*
- E.jinsiy bezda rivojlanish jarayonida meyozi ro'y beradi
- F.ko'payish mitoz bilan bo'ladi*
- G.rivojlanish jarayonida jinsiy bezdagi hujayralar ovosit,spermatozoid hosil bo'ladi
- H.embrional rivojlanishda jinsiy bezda I-tartibdagi ovosit spematositlar hosilbo'ladi

432.Ovogenezning yetilish davrida qo'yidagilardan qaysilari bo'ladi:

- A.ovulyasiya ro'y berishi bilan bu jarayon boshlanadi*
- B.graaf pufakchasida bu jarayon ketadi
- C.tuxumning yetilishi spermatozoid qo'shilishi bilan sodir bo'ladi*
- D.I-tartibli ovosit tuxum yo'liga tushadi
- E.reduksion bo'linish sodir bo'ladi*
- F.meyozning I-profazasi bo'ladi*
- G.2 ta ovosit va 2 ta polosit hosil bo'ladi
- H.3 ta ovosit va 1 ta polosit hosil bo'ladi

433. Qanday mavjudotlarda qaysi xil maydalanish ro'y beradi:

- A.lansetnik va sut emizuvchilarda meroblastik
- B.baliq va amfibiyalarda meroblastik*
- C.qo'shlarda va odamda diskoidal
- D.ayrim sudralib yuruvchilar va qo'shlarda diskoidal*
- E.lansetnik va baliqlarda goloblastik
- F.sut emizuvchi va lansetnikda goloblastik*
- G.sut emizuvchi vaamfibiyalarda goloblastik
- H.lansentikda goloblastik, qo'shlarda diskoidal*

434.Sut emizuvchilarda yo'ldosh tuzilishiga ko'ra, ya'ni ona qonini homila qonidan ajratuvchi qavatlariga binoan qanday tiplarga bo'linadi:

- A.gemoxorial (mushuklarda)
- B.endotelioxorial (odamda)
- C.dismoxorial (cho'chqada)
- D.xordomezodermal (qoramollarda)
- E.epitelioxorial (cho'chqlarda)*

- F.sindismoxorial (qoramollarda)*
- G.entoteliioxorial (itlarda).*
- H.gemoxorial (odamda).*

435.Odam organizmi hayot faoliyatining qanday qaltis davri borki, unga binoan hayot ayrim bosqichlarining biologik yoshi belgilanadi:

- A.bu organizm reproductiv faoliyatining o'ta rivojlangan davridir
- B.organizm reproductiv faoliyati susayishi bilan sodir bo'ladigan davr*
- C.klimaks davri*
- D.ayol organizmigagina xos bo'lgan klimaks davri
- E.erkak organizmida ancha kech sodir bo'ladigan, reproductiv faoliyatning susayish davri*
- F.ikkala jinsga xos bo'lgan klimaks davri*
- G.reproductiv faoliyatning susayishi bilan qarilik boshlanadigan
- H.organizm reproductiv faoliyatining susayishi bilan boshlanadigan klimaks davri*

436.Transplantasiyaning xillarini to'g'ri ko'rating.

- A.golotransplantasiya
- B.kserotransplantasiya
- C.gomotransplantasiya
- D.ksenotransplantasiya*
- E.izotransplantasiya*
- F.kserotransplantasiya, izotransplantasiya, golotransplantasiya
- G.autotransplantasiya*
- H.kserotransplantasiya, autotransplantasiya, izotransplantasiya

437.Organizmning o'sish, rivojlanish va qarish hamda qari organizm hususiyatlarini o'rganuvchi ta'limotlar va undagi ayrim o'zgargan holatlar nima:

- A.akselerasiya va degenerasiya
- B.pirogeriya*
- C.gerontologiya*
- D.akromegaliya
- E.akromegaliya va pirogeriya
- F.gerontologiya va akromegaliya
- G.geriatriya*
- H.akselerasiya*

438. Trypanosoma brucei rhodesiense va Trypanosoma cruzi kabi tripanosomoz kasalliklariniqo'zqg'ovchilarini va asosiy rezervuar (tabiiy manbalarini) ko'rsating:

- A.Trypanosoma brucei rhodesiense tabiiy manbasi rezervuarlar.- o'rmon jayronlari(antilopalar)*
- B.Trypanosoma brucei rhodesiense tashib yuruvchilar - Glossina morsitans turiga kiruvchi se-se pashshasi*
- C.Trypanosoma cruzi tabiiy manbasi rezervuari - bronenoseszirxli sut emizuvchi hayvon,chumolixo'r,kemiruvchilar,ayrim maymunlar*
- D.Trypanosoma cruzi tashib yuruvchilar - tripatomali qandalalar*
- E.Trypanosoma brucei rhodesiense tabiiy manbasi Afrika fillari
- F.Trypanosoma brucei rhodesiense tashib yuruvchilar -Glossina palpalis se-se pashshasi
- G.Trypanosoma cruzi tabiiy manbasi-antilopalar
- H.Trypanosoma cruzi tashib yuruvchilar - chivin va iskabtoparlar

439.Lyambliyaning morfologik hususiyatlarini ko'rsating:

- A.o'lchami 50 dan 68 mkm.gacha
- B.tanasi sharsimon
- C.hamma organoidlari va yadrosi toq sonda bo'ladi
- D.to'rtta so'rg'ichi bor
- E.yadrolari orasida 2 ta tayanch iplari yetadi*
- F.to'rt juft xivchinlarga ega*

G.osmotik yo'l bilan oziqlanadi*
H.sista hosil qiladi*

440.Odamga toksoplazmalarni yuqishi mumkin bo'lgan yo'llarini aniqlang:

- A.og`iz orqali*
- B. kontakt orqali*
- C.transplasentlar yo'l bilan*
- D. havo tomchisi orqali*
- E.se-se pashshasi chaqishi orqali
- F.iskabtopar chaqishi orqali
- G.jinsiy aloqa orqali
- H.etarli sterilizasiya qilinmagan genetik asboblardan

441.Toksoplazmaning morfologik belgilari:

- A.uzunligi 4 - 8 mkm*
- B.eni 2 - 4 mkm*
- C.shakli yarim oysimon,limon yoki apelsin tilimiga o'xshab ketadi*
- D.tanasini bir uchi to'mtoq, ikkinchi uchi to'rtib chiqqan*
- E.uzunligi 2 - 4 mkm
- F.eni 4 - 8 mkm
- G.shakli noksimon
- H.yopishib olishiga yordam beradigan 2 ta so'rg'ichi bor

442.Toksoplazma oosistalari organizmdan tashqariga chiqarilib yuborishi yo'llari:

- A.axlat*
- B.siydik*
- C.so'lak*
- D.burun shillig`i*
- E.ko'z yoshi
- F.qon
- G.yallig'langan yaralar
- H.jaroqatlangan teri

443.Balantidiyani morfologik xususiyatlarini ko'rsating:

- A.butun tanasi kipriklar bilan qoplangan*
- B.ikkita qisqaruvchi vakuolalarga ega*
- C.ikkita: katta(makronukleus) va kichik(mikronukleus) yadrolari bor*
- D.jinssiz yo'l bilan-ko'ndalangiga bo'linib ko'payadi*
- E.uzunligi 2 - 4 mkm
- F.eni 4 - 8 mkm
- G.shakli tayoqchasimon
- H.yopishib olishiga yordam beradigan 2 ta so'rg'ichi bor

444.So'rg'ichlarning erkak jinsiy organlarini belgilang:

- A.sariqdondlar
- B.melis tanachasi
- C.2 ta urug'don*
- D.2 ta urug' yo'li*
- E.ootip
- F.2 ta tuxumdon
- G.sirrus xaltasi*
- H.jinsiy a'zo-sirrus*

445.Jigar qurtini hayotiy siklida kuzatiladigan lichinka bosqichlarini birirediyda shakllanadigan organlarni ko'rsating:

- A.og`iz *

- B.og`iz so`rg`ichi
- C.nerv tuguni*
- D. halqum*
- E.og`iz,qizilo`ngach
- F.hazm qilish nayi*
- G.qorin so`rg`ichi
- H.ayirish organ

446.Shistozomalarni asosiy ho`jayin tanasida o`tdigan rivojlanish siklini aniqlang:

- A.etilgan shistozomalar ichak,siydik tanosil tizimning vena qon tomirlarida yashaydi va tuxumlarini ingichka qon tomirlariga qo`yadi*
- B.etilgan shistozomalar ingichka ichakning devorlariga yopishib olgan holda yashaydi va tuxumlarini ingichka ichak bo`shligiga qo`yadi
- C.tuxumlari ichida bir hafta mobaynida mirasidiy rivojlanadi*
- D.tuxumlari ichida mirasidiy, sporosista va serkariyalar rivojlanadi
- E.tuxumlari ichak va siydik pufagini kapillyarlariga tiqilib qoladi va devor-larini yorilishi natijasida atrofdagi to`qimalarga to`shadi*
- F.tuxumlari ichak bo`shlig`i va siydik pufagida yiqilib, siydik va axlat bilan tashqariga chiqadi*
- G.tuxumlari ichak bo`shlig`ida yiqilib axlat bilan tashqariga chiqadi
- H.serkariyalar tashqariga chiqmasdan, qon tomirlariga o`tadi

447.Keng lentasimon chuvalchangni asosiy va oraliq ho`jayinlari hamda hayotiy rivojlanishsiklida kuzatiladigan davrlarni belgilang:

- A.qorasidiy*
- B.asosiy ho`jayini-odam va baliqxo`r hayvonlar*
- C.oraliqho`jayini-mollyuska,baliqlar
- D.proserkoid*
- E.sporosista-rediya
- F.oraliqho`jayini-siklop,yirtqich baliqlar*
- G.asosiy ho`jayini-odam va chorva mollari
- H.pleroserkoid*

448.Alveokokk uchun xos bo`lgan belgilarni aniqlang:

- A.pufagi bir nechta pufaklardan iborat*
- B.asosiy ho`jayini tulki, kamdan kam holda odam
- C.boshida 4 ta yoriqi va ilmoqlari bo`ladi
- D.voyaga yetgan shakli ichakda yashaydi*
- E.alveokokk pufagi bir va ko`p kamerali bo`ladi
- F.voyaga yetgan shakli go`shtxo`r hayvonlarda yashaydi
- G.lichinkasi miyada, jigarda,ut pufagida,ichakda yashaydi
- H.tanasining uzunligi A.5 -B.8 mm*

449.Vuxererioz bilan kasallangan bemorda kuzatiladigan kasallik belgilarini ko`rsating:

- A.uzoq vaqt davomida kuzatiladigan uyquchanlik yuzaga keladi
- B.harorati ko`tarilib,sovuq ter bosib,qaltiray boshlaydi
- C.to`qimalarda shish va infiltratlar hosil bo`ladi*
- D.voyaga yetgan chuvalchanglar limfa tomirlariga tiqilib qolishi natijasida a`zolar,tana qismlari,oyoqlar yo`g`onlashib ketadi(fil oyoq).*
- E.boshi, qo`llari, oyoqlari va boshqa organlari yo`g`onlashib ketadi*
- F.dastlab allergik holatlar yuzaga chiqadiTana harorati ko`tariladi*
- G.dastlab tana harorati pasayadi, ko`ngli ayniydi
- H.limfa tugunlar kattalashib, terisida yaralar hosil bo`ladi

450. Ostrisa uchun xos bo`lgan morfologik belgilarni aniqlang:

- A.o`rg`ochisining uzunligi 10-12 mm, erkaginiki 2 mm dan 5 mm gacha*

- B.voyaga yetgan shaklida - odamning limfatik tomirlarida, limfa tugunlarida yashaydi 3-4 yil hattoki 20 yil yashashi mumkin
- C.tanasi duksimon,bosh tomonida kengaygan kutikula-vezikula bilan o'ralgan*
- D.yirik chugalchang
- E.bulbus deb nomlanadigan qismi bo'lib, unda kutikulali chaynash plastinkalari bo'ladi*
- F.o'rg'ochisining uzunligi 40 sm, erkaginiki esa 25-30 sm
- G.voyaga yetgan davri ichakda yashaydi, lichinkalari migrasiyalanadi
- H.o'lchami kichik bo'lgan chugalchang*

451.Enterobioz bilan kasallangan bemorda kuzatiladi:

- A.ichak shilliq pardasini jaroqatlanishi natijasida, uni yallig'lanishi*
- B.dormonsizlik, serzardalik
- C.ish qobiliyatini pasayishi, xotirasini susayishi
- D.ishtahani yo'qolishi, qornini oqrishi,ko'ngil ayniyshi, qayd qilishi*
- E.bemorning boshi oqriydi, boshi aylanadi
- F.bemorning boshi oqriydi,harorati 40-41 C ko'tarilib ketadi
- G.anal teshigining atrofini qichishi, asabiylanishi, holdan ketishi*
- H.bolani injiq bo'lishi, uyqusida ko'p bezovtalanishi*

452.Trixenellaga tegishli bo'lganlarni aniqlang:

- A.parazit yashaydigan har qanday organizm,bir vaqtda,ham asosiy,ham oraliq ho'jayin bo'lib hisoblanadi*
- B.voyaga yetgan shakllari ingichka ichakda yashaydi*
- C.asosiy ho'jayini - odam, oraliq ho'jayini - chuchqa
- D.tug'ilgan lichinkalari migrasiyadan keyin, ichakka tushib voyaga yetgan parazitga aylanadi
- E.voyaga yetgan shakllari ham, lichinkalari ham ko'ndalang yo'lli mushaklarda yashaydi
- F.lichinkalari ko'ndalang targ'il mushaklarda yashaydi
- G.o'rg'ochilari butun hayoti davomida 1500-2000 ta tirik lichinka tug'adi*
- H.lichinkalari voyaga yetgan shaklga aylanishi uchun boshqa organizmga tushishlari kerak*

453.Egri boshli gijjaning morfofiziologik xususiyatlarini aniqlang:

- A.rangi sarg'ish-ko'kimtir
- B.bosh tomoni qilsimon
- C.o'rg'ochisini uzunligi 5-8 mm,tanasining orqa tomoni uchli
- D.erkagi 2-4 mm bo'lib,tanasining orqa tomonini uchi kengaygan bitta spikulaga ega
- E.rangi oqimtir-kulrang*
- F.bosh tomoni orqaga karab egilgan*
- G.urgochisini uzunligi 10-18 mm,tanasining orqa tomoni uchli*
- H.erkagi 8-11 mm bo'lib,tanasining orqa tomonini uchi kengaygan va jinsiy xaltachaga aylangan bo'ladi, ikkita spikulaga ega*

454.Strongiloidoz kasalligini qo'zg'ovchi parazitga tegishli bo'lgan belgilarnianiqlang:

- A.rivojlanish siklida faqat parazit holda hayot kechiradi
- B.ingichka ichakda yashaydi*
- C.odamda faqat qorin qismida og'riklar paydo qiladi
- D.geogelmint*
- E.12 barmoqli ichakda yashaydi
- F.rivojlanish siklida parazit holatda hayot kechirishi va erkin hayot kechirish davrlarini o'tadi*
- G.kasal odamlarda ovqat hazm qilish sistemasini normal ishlash faoliyati bo'ziladi*
- H.biogelmint

455.Geogelmintlar uchun xos bo'lgan xususiyatlarni va ularga kiruvchi parazit chugalchaglarni aniqlang:

- A.jigar qurti
- B.qiyshiq boshli gijja*

- C.cho'chqa solityori
- D.hayotiy sikli ho'jayin almashtirish bilan o'tadi
- E.qil boshli gijja*
- F.keng tasmasimon chuvalchang
- G.odam askaridasi*
- H.ho'jayin almashtirmasdan rivojlanadi*

456.Egri boshli gijjaning morfologik tuzilishini,qanday kasallikni keltirib chiqarishini va qaysi organlarda parazitlik qilishini ko'rsating:

- A.trixosefaleH. Ingichka ichakda
- B.rangi sarg'ish-ko'kimtir,boshi qilsimon
- C.urg'ochisini uzunligi 20-28 mm,tanasining orqa tomoni egilgan
- D.ankilostomidoz*
- E.o'n ikki barmoqli ichakda*
- F.erkagi 8-11 mm bo'lib,tanasining orqa tomonini uchli va jinsiy xaltachaga aylangan bo'ladi, bitta spikulaga ega
- G.rangi oqimtir-kul rang,bosh tomoni orqaga qarab egilgan*
- H.o'rg'ochisini uzunligi 10-18 mm,tanasining orqa tomoni uchli, erkagi 8-11 mm bo'lib,tanasining orqa tomonini uchi kengaygan va jinsiy xaltachaga aylangan bo'ladi, ikkita spikulaga ega*

457. Qon so'rib oziqlanadigan kanallarni og'iz apparati uchun hos bo'lgan hususiyatlarni belgilang:

- A. heliseralari, qisqichlar kabi tuzilgan bo'lib,uljani ushlash hamda kesishga moslashgan
- B.qon so'rishini ta'minlaydigan maxsus og'iz a'zosi gipostomi bo'ladi*
- C.pedipalpalari oyoqlar ko'rinishida bo'lib, harakat vazifasini bajaradi
- D.gipostomini uchida maxsus so'rg'ichlari bo'lib,shular yordamida ho'jayin badaniga yopishib oladi
- E.gipostomida bir qancha teskarisiga qaragan tikanlari bo'lib, ular qon so'rganda ho'jayin badaniga yopishib turishga yordam beradi*
- F.qon so'rish jarayonini susaytiradigan, og'riqni sezdirmaydigan, qonning ivitmaydigan so'lakajratadi*
- G. heliserasi baquvvat o'ljasini ushlab olish va o'ldirish uchun moslashgan
- H. heliseralari sanchib so'rishga moslashgan,pedipalpalari esa paypaslagich vazifasini bajaradi*

458.Burgalar uchun tegishli bo'lgan larni belgilang:

- A.odam burgasi 9 sm balandlikka, 32 sm masofoga sakrashi mumkin*
- B.odam burgasi 32 sm balandlikka, 9 sm masofoga sakrashi mumkin
- C.o'zun va mushakli orqa oyoqlari yordamida sakrab tez harakatlanadi*
- D.uchchala juft oyoqlari yordamida sakrab tez harakatlanadi
- E.to'liq metamorfoz yo'li bilan rivojlanadi*
- F.chala metamorfoz yo'li bilan rivojlanadi
- G.faqat voyaga yetgan davri-imago qon bilan oziqlanadi*
- H.hamma - lichinka,nimfa,imago davrlarida qon bilan oziqlanadi

459. Qaysi gelmintlarda autoinvaziya va qaysilarida autoreinvaziya kuzatilishini aniqlang:

- A.autoinvaziya - fassiolezda
- B.autoreinvaziya - opistorxozda
- C.autoinvaziya - teniozda*
- D.autoreinvaziya - enterobiozda*
- E.autoinvaziya - trixosefalezda
- F.autoinvaziya - gimenolepidozda*
- G.autoreinvaziya - ankilostomozda
- H.autoreinvaziya - gimenolepidozda*

460.Ankilostomaning odam uchun invazion bo'lgan filyarisimon lichinkasini organizmga to'shishi mumkin bo'lgan yo'llarini ko'rsating:

- A.nofaol- teri orqali
- B.yaxshi pishirilmagan qoramol jigari
- C.nofaol - ifloslangan oziqni yeyish orqali(ya'ni og'iz orqali)*

- D.yaxshi pishirilmagan qoramoll go'shtlari orqali
- E.faol va nofaol*
- F.faol - ifloslangan oziqni yeyish orqali(ya'ni og`iz orqali)
- G.faol - teri orqali*
- H.yaxshi pishirilmagan chuchqa go'shtlari orqali

461.Chayonlar uchun xos bo'lgan belgilarni aniqlang:

- A.tanasi ikki qismdan iborat: boshko'krak va qorin*
- B.tanasi uch qismdan iborat: boshko'krak, oldingi qorin va orqa qorin
- C.qorin qismi segmentlarga bo'lingan*
- D.boshko'krak qismi ham, qorin qismi ham segmentlarga bo'lingan
- E.tirik bola tug'ib ko'payadi*
- F.tuxum qo'yish bilan ko'payadi
- G.oldingi qorin qismida o'zgargan oyoq o'simtalari-jinsiy qopqoqchalari va bir juft taraqsimon o'simtalari joylashgan*
- H.orqa qorin qismida - jinsiy a'zolari joylashgan

462.Tibbiyotda ahamiyatga ega bo'lgan so'nalarning belgilang:

- A.Oestrus ovis – qo'y so'nasi
- B.Phinoestrus bovis - ko'z so'nasi
- C.Castrophilus intestinalis - oshqozon sunasi*
- D.Hypoderma bovis - teri so'nasi*
- E.Oestrus intestinalis - quy so'nasi *
- F.Phinoestrus purpureus - rus so'nasi*
- G.Castrophilus ovis - ichak so'nasi
- H.Hypoderma brasiliis - braziliya so'nasi

463. Tana skeleti rivojlanishida ko'zatiladigan anomaliyalarni belgilang?

- A. mikrosefaliya
- B. polidaktiliya*
- C. anensefaliya
- D. melanizm
- E. atlant assimilyasiyasi*
- F. monodaktiliya*

464. Quyidagi qatorlarda berilgan hayvonlardan zaharli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lganlarini belgilang?

- A. yomg'ir chuvalchangi ko'payish davrida*
- B. oq ayiqning jigari iste'mol qilinsa*
- C. baqaning ter bezlaridan ajraladigan zahar*
- D. yirtqich qushlar cho'qigan vaqtida
- E. Marinka baligini go'shti iste'mol qilinganda
- F. tipratikonni go'shti iste'mol qilinganda

465. Faoliyati hisobiga biosferada gomeostatik holatini (dinamik muvzanat) yuzaga keltiruvchi uch xil organizmni ko'rsating?

- A. produsentlar*
- B. konsumentlar*
- C. redusentlar*
- D. o'simliklar
- E. o'simlikxo'rlar
- F. hammaxo'rlar

466. Birlamchi zaharli hayvonlarni S.C. Pigulevskiy qanday guruhlariga ajratishni taklif qilganini, hamda ular zaharini ishlash va ajratishi buyicha qanday guruhga ajratilganini aniqlang?

- A. spesifik va nospesifik *
- B. zahari kuchsiz bo'lgan hayvonlar

- C. faol zaharli*
- D. nofaol zaharli*
- E. zahari kuchli bo'lgan hayvonlar
- F. zahari o'ta kuchli bo'lgan hayvonlar

467. Sodda hayvonlarning inson uchun zaharli bo'lgan turkumlarini aniqlang?

- A. dinoflagellata*
- B. triponasida
- C. euglenida*
- D. sporalilar
- E. xloromanadida*
- F. ildiz oyoqlilar

468. Zaharli kovokichlilar zaharining ta'siri jixatidan qanday guruhlarga ajralishini aniqlang?

- A. dermatrop*
- B. miotrop
- C. neyrotrop*
- D. sklerotrop
- E. gematrop*
- F. miksotrof

469. Kovokichlilar tipi, gidroidlar sinfiga mansub zaharli hayvonlarni belgilang?

- A. butsimon meduza - gonicnemus vertens*
- B. portugaliya kemachasi - physalia physalis*
- C. yolg'on korall - millipora alcicorniis*
- D. oddiy aktiniya - actinia eguina
- E. aureliya meduzasi - aurelia aurita
- F. ildiz og'iz meduza - rhizostoma

470. Kovokichlilar tipi, ssifoidlar sinfiga mansub zaharli hayvonlarni belgilang?

- A. butsimon medusa - gonicnemus vertens
- B. portugaliya kemachasi - physalia physalis
- C. yolg'on korall - millipora alcicorniis
- D. dengiz qovoq arisi - chironex fleckeri*
- E. aureliya meduzasi - aurelia aurita*
- F. ildiz og'iz meduza - rhizostoma*

471. Muhitning biotik omillari ta'siri natijasida yuzaga keladigan, turlar orasida va tur ichida kuzatiladigan munosabat turlarini belgilang?

- A. oziq zanjirlari*
- B. raqobat*
- C. antibioz*
- D. fotoperiodizm
- E. anabioz
- F. populyasiya to'lqinlari

472. Postembrional rivojlanishning yuvenil davrida asosiy o'zgarishlarni ko'rsating?

- A. o'sish*
- B. tana kismlarining o'zaro mutonosibligidagi o'zgarishlar *
- C. to'qimalar, azolar funksiyalarining yetuk organizmga xos rejimga asta sekin o'tib borishi*
- D. o'sishning sekinlashishi
- E. tana kismlarining o'zaro mutonosibligidagi o'zgarishlarning bo'lmasligi
- F. to'qimalar, a'zolar funksiyalarining yetuk organizmga xos rejimga asta sekin o'tib bormasligi

473. O'sish jarayonida qalqonsimonbez gipofunksiyasida nimalar ko'zatiladi?

- A. umumiy moddalar almashinuvi susayadi*

- B. nerv ko'zg'aluvchanligi pasayadi*
- C. reflekslar hosil bo'lishi sekinlashadi*
- D. umumiy moddalar almashinuvi kuchayadi
- E. nerv qo'zg'aluvchanligi kuchayadi
- F. reflekslar hosil bo'lishi tezlashadi

474. Postembrional rivojlanishning yetuklik davrida qanday fiziologik o'zgarishlar kuzatiladi?

- A. 30-35 yoshlarda fiziologik reaksiyalar va moddalar almashinuvi o'zgaradi*
- B. 45 yoshdan endokrin bezlar funksiyalari o'zgaradi*
- C. 50-60 yoshlarda karilikni bildiruvchi o'zgarishlar paydo bo'ladi*
- D. 50 yoshgacha organizmning fiziologik reaksiyalari va moddalar almashinuvida o'zgarishlar kuzatilmaydi
- E. pubertat davrida endokrin sistemasida o'zgarishlar bo'lmaydi
- F. pubertat sakrash ko'zatiladi

475. Fiziologik regenerasiya tiriklikning qaysi darajalarida amalga oshadi va u nimani ta'minlaydi?

- A. molekula, hujayra ichi va hujayra darajasida amalga oshadi*
- B. to'qima darajasida amalga oshadi*
- C. gomeostaz va o'z-o'zini tiklashni ta'minlaydi*
- D. faqat organ darajasida amalga oshadi
- E. faqat to'qima darajasida amalga oshadi
- F. fiziologik regenerasiyani ta'minlaydi

476. Hujayralar, a'zolar va to'qimalarni ko'chirib o'tkazish - transplantasiyaning qanday turlari mavjud?

- A. autotransplantasiya, geterotransplantasiya*
- B. izotransplantasiya, allotransplantasiya*
- C. eksplantasiya*
- D. hujayra darajasidagi transplantasiya
- E. kompensator transplantasiya
- F. gomeostatik transplantasiya

477. Organizmlar ichki muhit doimiyligini saqlash - gomeostaz xillarini ko'rsating?

- A. strukturaviy gomeostaz*
- B. kimyoviy gomeostaz*
- C. genetik gomeostaz*
- D. gumoral gomeostaz
- E. nospesifik gomeostaz
- F. morfologik gomeostaz

478. Genetik gomeostaz yoki irsiy axborotlar doimiyligini saqlash nima hisobiga ta'minlanadi?

- A. reparasiya hisobiga*
- B. replikasiya hisobiga*
- C. somatik hujayralar genotipining diploidlik xolati hisobiga*
- D. somatik hujayralar genotipining gaploidlik xolati hisobiga
- E. hujayraviy immunitet hisobiga
- F. organizmning morfologik holatini saqlash hisobiga

479. Fiziologik regenerasiyaning turlari?

- A. labil turg'un bo'lmagan*
- B. stabil turg'unroq*
- C. statik turg'un*
- D. somatik embriogenez
- E. epimorfoz
- F. morfolaksis

480. Statik turg'un regenerasiyada yemirilish va tiklanish qaysi darajada ro'y beradi va bunda

hujayraning o'zi nobud bo'ladimi?

- A. yemirilish va tiklanish molekula darajasida ro'y beradi*
- B. yemirilish va tiklanish organoidlar darajasida ro'y beradi*
- C. regenerasiyaning bu turida hujayraning o'zi nobud bo'lmaydi*
- D. yemirilish va tiklanish hujayra va to'qima darajasida ro'y beradi
- E. yemirilish va tiklanish faqat organ darajasida ro'y beradi
- F. regenerasiyaning bu turida hujayraning o'zi nobud bo'ladi

481. Postrembrional rivojlanish davrlarida gomeostaz holati qanday bo'ladi?

- A. yuvenil davrida stabil turg'un bo'lmaydi*
- B. yetuklik davrida stabil turg'un bo'ladi*
- C. qarilik davrida susaygan bo'ladi*
- D. qarilik davrida stabil turg'un bo'ladi
- E. yuvenil davrida stabil turg'un bo'ladi
- F. yetuklik davrida susaygan bo'ladi

482. Qarish mexanizmini tushuntiruvchi A.A.Bogomols, I.P.Pavlov va I.I.Mechnikov gipotezalari nimalarga asoslangan?

- A. Bogomols gipotezasi: biriktiruvchi to'qima tarkibi xususiyatining o'zgarishi qarilikni tezlashtiradi*
- B. Pavlov: asabning zo'rikishi qarish ni tezlashtiradi*
- C. Mechnikov: fiziologik va patologik qarish mexanizmlarini tushuntiradi*
- D. Pavlov gipotezasi: biriktiruvchi to'qima tarkibi xususiyatining o'zgarishi qarilikni tezlashtiradi
- E. Mechnikov: asabning zo'riqishi qarishni tezlashtiradi
- F. Bogomols: fiziologik va patologik qarish mexanizmlarini tushuntiradi

483. Qarilik mexanizmini tushuntiruvchi genetik gipotezada qanday ma'lumotlar berilgan?

- A. qarish jarayoni irsiyat nazoratida bo'ladi*
- B. qarish - bu jarayonni idora qiluvchi genlarga bog'liq deb tushuntiriladi*
- C. qarishga aloqador genlar aniqlanib, ularni boshqarish mexanizmini tushuntiradi*
- D. qarish jarayoni xam irsiyatga, xam muxit omillariga bog'liq deb tushuntiradi
- E. qarish jarayoni organizmdagi moddalar almashinuviga bog'liq deb tushuntiradi
- F. qarish jarayoni ijtimoiy muhit omillariga bog'liq deb tushuntiradi

484. Tug'ma nuxsonlar morfo-fiziologik buzilish xiliga qarab qanday xillarga bo'linadi?

- A. aplaziya, gipoplaziya*
- B. gipotrofiya, geterotrofiya, gipertrofiya*
- C. geteroplaziya, stenoz, atriziya*
- D. gigantizm, nanizm
- E. gigantizm, gipertrofiya, atriziya
- F. akromegaliya, nanizm, geteroplaziya

485. Kelib chiqish sabablariga ko'ra tug'ma nuqsonlarning qanday xillari mavjud?

- A. genetik - gen, xromosoma mutasiyalari natijasida kelib chiqadi*
- B. ekzogen - tashqi muhitning zararli omillari natijasida kelib chiqadi*
- C. multifaktorial (aralash) - genetik va ekzogen omillar ta'sirida kelib chiqadi*
- D. modifikasion va kombinativ o'zgaruvchanlik hisobiga kelib chiqadi
- E. endogen - tashqi muhitning zararli omillari natijasida kelib chiqadi
- F. faqat endogen omillar ta'sirida kelib chiqadi

486. Strukturaviy gomeostaz nima uchun xizmat qiladi va uning asosida qanday jarayon yotadi?

- A. organizmning molekula va hujayralari tuzilishini saqlashga xizmat qiladi*
- B. organizmning to'qimalari, a'zolari tuzilishini saqlashga xizmat qiladi *
- C. strukturaviy gomeostaz mexanizmining asosida fiziologik va reparativ regenerasiya jarayoni yotadi*
- D. faqat organizm darajasida tuzilishini saqlashga xizmat qiladi
- E. faqat hujayra darajasida tuzilishini saqlashga xizmat qiladi
- F. strukturaviy gomeostaz mexanizmining asosida - nerv boshqaruvi jarayoni yotadi

487. Kimyoviy gomeostaz nima uchun xizmat qiladi va u qanday jarayon asosida amalga oshiriladi?

- A. qon, limfa suyuqliklari xususiyatlari doimiyligini saqlashga xizmat qiladi*
- B. to'qima suyuqligi xususiyatlari doimiyligini saqlashga xizmat qiladi*
- C. nerv va gumoral omillar yordamida amalga oshiriladi*
- D. organizmning molekula va hujayralari tuzilishini saqlashga xizmat qiladi
- E. organizmning to'qimalari, a'zolari tuzilishini saqlashga xizmat qiladi
- F. kimyoviy gomeostaz regenerasiya jarayoni hisobiga amalga oshiriladi

488. Stress - reaksiya yoki adaptasion sindrom kim tomonidan kashf qilingan, u nima ta'sirida rivojlanadi va stressing qanday xillari mavjud?

- A. 1936-yil Sele tomonidan kashf qilingan*
- B. noqulay sharoitlarda, gomeostaz buzilishiga olib keluvchi kuchli, uzoq davom etuvchi omillar ta'sirida rivojlanadi*
- C. ruxiy va somatik stress xillari mavjud*
- D. 1946- yil Sele tomonidan kashf qilingan
- E. qulay sharoitlarda, gomeostaz buzilishiga olib kelmaydigan kuchsiz, qisqa davom etuvchi omillarta'sirida rivojlanadi
- F. stress xillari mavjud emas

489. Stress - reaksiya yoki adaptasion sindromning qanday bosqichlari ma'lum?

- A. safarbarlanish bosqichi*
- B. himoya kuchlarining ortishi bosqichi*
- C. himoya mexanizmlarining charchashi bosqichi*
- D. endogen bioritmlar bosqichi
- E. nafas olish va yurak urishidagi o'zgarishlar bosqichi
- F. ekzogen bioritmlar bosqichi

490. Organizmda bo'ladigan bioritmlarni qaysi fan o'rganadi va uning qanday turlari mavjud?

- A. bioritmlarni bioritmologiya yoki xronobiologiya fani o'rganadi*
- B. bioritmlarni fiziologik turi ma'lum*
- C. bioritmlarning ekologik turi ma'lum*
- D. bioritmlarni kriobiologiya fani o'rganadi
- E. bioritmlarni patologik turi ma'lum
- F. bioritmlarni turlari mavjud emas

491. Fiziologik yoki endogen bioritmlar chastotasi organizmning qaysi holatiga boqliq o'zgaruvchanlik hisoblanadi va ularga nima misol bo'la oladi?

- A. fiziologik yoki endogen bioritmlar chastotasi organizmlarning ichki holatiga bog'liq o'zgaruvchanlikdir*
- B. fiziologik bioritmlarga nafas olish, yurak urish ritmlari, arterial bosim, harorat o'zgarishlari misol bo'ladi*
- C. fiziologik bioritmlarga gormonlar sekresiyasi, hujayralarning bo'linishi kabilar misol bo'ladi*
- D. fiziologik yoki endogen bioritmlar chastotasi organizmlarning tashqi holatiga bog'liq o'zgaruvchanlikdir
- E. fiziologik bioritmlarga nafas olish, yurak urish ritmlari, arterial bosim, harorat o'zgarishlari, normal ovqatlanish va jismoniy mashklar bilan shug'ullanish misol bo'ladi
- F. fiziologik bioritmlarga organizmdagi patologik holatlar misol bo'ladi

492. Nima uchun insonlar populyasiyalarida tabiiy tanlash o'zining ijobiy omil sifatidagi ahamiyatini yo'qotgan?

- A. odam populyasiyalariga tanlashning asosan stabillashtiruvchi shakli ta'sir etadi*
- B. stabillashtiruvchi tanlash evolusion o'zgarishlarga sabab bo'lmaydi*
- C. stabillashtiruvchi tanlash avloddan avlodga populyasiyaning fenotipik stabilligini saqlaydi*
- D. odam populyasiyalariga tanlashning asosan harakatlantiruvchi shakli ta'sir etadi
- E. harakatlantiruvchi tanlash evolusion o'zgarishlarga sabab bo'lmaydi

F. harakatlantiruvchi tanlash avloddan avlodga populyasiyaning fenotipik stabilligini saqlaydi

493. Evolusion morfologiya fanining vazifalarini ko'rsating?

- A. organizmlar tuzilishi, rivojlanishidagi o'xshashliklar, boqlanishlarni aniqlash*
- B. evolyusiyada a'zolar o'zgarishlarining asosiy uslublari va yo'nalishlarini aniqlash*
- C. muhit sharoitlarining bu o'zgarishlar harakteriga ta'sirini aniqlash*
- D. organizmlar tuzilishi, rivojlanishidagi farqlarga boqlanishlarni aniqlash
- E. evolyusiyada a'zolaridagi o'zgarishlikning asosiy uslublari va yo'nalishlarini aniqlash
- F. endogen sharoitlarining bu o'zgarishlar harakteriga ta'sirini aniqlash

494. Odamsimon maymun va odamlar o'rtasidagi qaysi belgilar odamning hayvonlardan kelib chiqqanligini tasdiqlovchi solishtirma anatomik dalil hisoblanadi?

- A. maymun bilan odam skeletidagi va bosh miya tuzilishidagi o'xshashliklar*
- B. maymun bilan odamning xulq-atvoridagi va embrional taraqqiyotidagi davrlar orasidagi o'xshashliklar*
- C. maymun va odamlardagi rudiment a'zolar va atavizmning mavjudligi*
- D. maymun bilan odam skeletidagi va bosh miya tuzilishidagi farqlar
- E. maymunlar embrionining odamlarnikidan farqli bo'lishi
- F. odamlarda rudiment va atavizmlarning bo'lmasligi

495. Somatometrik va somatoskopik tekshirishlarga asoslanib antropolog olimlar odamlarni qanday antropologik guruhlariga ajratadilar?

- A. negroid*
- B. yevropoid*
- C. mongoloid*
- D. avstraloid
- E. neantroid
- F. poleantroid

496. Antropoekologik sistemalarda insonlar jamiyati bilan tabiiy muhit orasida o'zaro ta'sir qanday yo'nalishlarda boradi?

- A. muhit ta'sirida biologik ko'rsatkichlar o'zgaradi*
- B. muhit ta'sirida ijtimoiy ko'rsatkichlar o'zgaradi*
- C. insonlar ehtiyojini qondirishi natijasida muhitning o'zi ham o'zgaradi*
- D. muhitning ta'sirida genotipik ko'rsatkichlar o'zgaradi
- E. muhit ta'sirida biologik ko'rsatkichlar o'zgarmaydi
- F. muhit ta'sirida ijtimoiy ko'rsatkichlar o'zgarmaydi

497. Zaharli suvda ham quruqlikda yashovchilar qaysi zaharli hayvonlar guruhiga kiradi, ularning zahari tarkibiga qanday toksik birikmalar kiradi va amfibiyalarning qaysi turlari zaharli?

- A. zaharli suvda ham quruqlikda yashovchilar nafaol zaharli hayvonlar guruhiga kiradi*
- B. amfibiyalar zaharining tarkibiga kuchli toksik birikmalar, og'riqsizlantiruvchi peptidlar, biogenaminlar, kardiotonik steroidlar, gemolitik oqsillar kiradi*
- C. amfibiyalarning olovli salamandra, kaliforniya tritoni va kulrang qurbaqa turlari zaharli*
- D. zaharli suvda ham quruqlikda yashovchilar faol zaharli hayvonlar guruhiga kiradi
- E. amfibiyalar zaharining tarkibiga neyrotoksinlar, gemoraginlar va gemotoksinlar kiradi
- F. amfibiyalarning janubiy osiyo gigant salamandrasi, gekkon va karpas tritoni turlari zaharli

498. Tropik adaptiv tip qanday sharoitlarda shakllangan va bu tipning harakterli xususiyatlari qaysilar?

- A. bu tip ratsionida hayvon maxsulotlari nisbatan kam, jazirama va nam iqlim, ekologik sharoitlari xilma-xil bo'lganda shakllanadi*
- B. somatik ko'rsatkichlarning xilma-xilligi, mushaklar va tana massasi kamligi, oyoq-qo'llar uzunligi*
- C. ko'p ter ajralishi, asosiy va yog' almashinuvi sustligi, qonda xolesterin miqdorining kamligi*
- D. issiq iqlim va ovqatda asosan hayvon maxsulotlari ko'p sharoitda shakllangan
- E. suyak-mushak sistemasi yaxshi rivojlanishi, ko'krak kafasi xajmi kengligi

F. qonda xolesterin miqdori ko'pligi, lipidlarning yaxshi oksidlanishi, termoregulyasiyaning yaxshi rivojlanishi

499. O'rtacha adaptiv tip qanday sharoitlarda shakllangan va bu tipning harakterli xususiyatlari qaysilar?

- A. iqlim sharoitlari mo'tadil xududlarda shakllangan*
- B. bunday xududlarda mavsumiy bioritmlar yaxshi namoyon bo'ladi*
- C. moddalar almashinuvi ko'rsatkichlari arktik va tropik adaptiv tiplarning o'rtacha ko'rsatkichiga ega*
- D. quyosh radiyasi o'ta kuchli iqlim sharoitlarda shakllangan
- E. issiqlik uzatilishi yuqoriligi, ter bezlari yaxshi rivojlangan
- F. tana massasi kam, suyak-mushak sistemasi yaxshi rivojlangan

500. Cho'l-saxro adaptiv tip qanday sharoitlarda shakllangan va bu tipning harakterli xususiyatlari qaysilar?

- A. quyosh radiyasi o'ta kuchli, jazirama, quruq, o'ta kontinental iqlim sharoitlarida shakllangan*
- B. issiqlik uzatilishi yuqori*
- C. ter bezlari yaxshi rivojlangan, ko'p suv iste'mol qiladi*
- D. iqlim sharoitlari mo'tadil xududlarda shakllangan
- E. bunday xududlarda mavsumiy bioritmlar yaxshi namoyon bo'ladi
- F. moddalar almashinuvi ko'rsatkichlari arktik va tropik adaptiv tiplarning o'rtacha ko'rsatkichiga ega

501. Agrobiosenozlarda turlar tarkibi qanday bo'ladi va tibbiy nuqtai nazardan bu ekosistemalarda nimalar ko'p tarqalgan?

- A. agrobiosenozlarda turlar tarkibi cheklangan bo'lib, asosan madaniy o'simliklar va uy hayvonlaridan tashkil topadi*
- B. bu ekosistemalarda antropozoonozlar, geogelmintozlar va biogelmintozlar ko'p tarqalgan*
- C. atrof-muhit kimyoviy o'g'itlar va pestisidlar bilan ifloslangan*
- D. agrobiosenozlarda hayot darajasi yuqoriligi, umumiy kasallanish ko'rsatkichining pastligi, tibbiy yordam ko'rsatish yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'ladi
- E. agrobiosenozlarda aholining zichligi, yuqumli kasalliklar tarqalishiga omil hisoblanadi
- F. shovqin, gipodinamiya hisobiga asab, ruxiy va yurak-qon-tomir kasalliklari ko'p uchraydi

502. Chayonlarning zaharida qanday toksinlar uchraydi, chayon chaqishi qaysi joylarda kuzatiladi va chayon chaqqanda qanday klinik belgilarni ko'rish mumkin?

- A. chayonlarning zaharida gemoraginlar, gemolizinlar va kam miqdorda neyrotoksinlar uchraydi*
- B. chayonning chaqishi ko'prok yashash joylarida kuzatiladi*
- C. chayon chaqqan joyda igna sanchganga o'xshash og'riq, giperemiya, keyin umumiy intoksikasiya simptomlari va eritrositlar gemolizi kuzatiladi*
- D. chayonlarning zaharida faqat neyrotoksinlar uchraydi
- E. chayonning chaqishi faqat cho'l hududlarida kuzatiladi
- F. chayon chaqqan joyda atrofi qizargan xalqali rangsiz bo'rtiqcha va uni o'rab turgan to'qimalarda har xil shish paydo bo'ladi

503. Xordalilarda ayirish sistemasi evolyusiyasi nechta tipdagi buyrak hosil qilish bilan boradi?

- A. pronefroz*
- B. mezonefroz*
- C. metanefroz*
- D. malpigi naychalari
- E. yashil bezlar
- F. birlamchi va ikkilamchi siydik naychalari

504. Umurtqalilarning jinsiy sistemasi evolyusiyasi qaysi sistema evolyusiyasi bilan uzviy bog'liq va urug'don, tuxumdonlarning evolyusiyasi qaysi yo'nalishda boradi?

- A. ayirish sistemasi evolyusiyasi bilan uzviy bog'liq*
- D. urug'don va tuxumdonlarning evolyusiyasi tuzilishining takomillashuvi va tuxum yo'llarining ixtisoslashishi yo'nalishida boradi*

- C. endokrin funksiyaning ortishi yo'nalishida boradi*
- D. qon aylanish sistemasi evolyusiyasi bilan uzviy bog'liq
- E. urug'don va tuxumdonlarning evolyusiyasi tuzilishining soddalashuvi va tuxum yo'llarining ixtisoslashmaligi yo'nalishida boradi
- F. nerv funksiyaning ortishi yo'nalishida boradi

505. Umurtqalilar nerv sistemasining evolyusiyasi nimaga bog'liq ravishda kechadi va evolyusiya jarayonida nimalar kuzatiladi?

- A. umurtqalilarda nerv sistemasining evolyusiyasi tashqi muhitga bog'liq ravishda kechadi*
- B. umurtqalilarda nerv sistemasining evolyusiyasi sezgi organlariga bog'liq ravishda kechadi*
- C. nerv sistemasi evolyusiyasi jarayonida oliy boshqaruvchi markazlar oldinga tomon siljiydi va kulrang moddaning miqdori ortib boradi*
- D. umurtqalilarda nerv sistemasining evolyusiyasi tashqi va ichki muhitga bog'liq ravishda kechadi
- E. umurtqalilarda nerv sistemasining evolyusiyasi qon aylanish organlariga bog'liq ravishda kechadi
- F. nerv sistemasi evolyusiyasi jarayonida oliy boshqaruvchi markazlar soddalashadi va kulrang moddaning miqdori kamayib boradi

506. Sut emizuvchilarda "bronx daraxti"ni nima hosil qiladi, mayda bronxlar nimalar bilan tugagan va u nima bilan o'ralgan, nafas olish harakatlarida qaysi organ muhim ahamiyatga ega?

- A. sut emizuvchilarda uchlamchi va to'rtlamchi bronxiolalar o'pkada "bronx daraxti" ni hosil qiladi*
- B. mayda bronxlar oxirida asinozlar bo'lib ular qon kapilyarlari bilan o'raladi*
- C. nafas olish harakatlarida diafragma muhim ahamiyatga ega*
- D. sut emizuvchilarning o'pkasida to'siqlar va bronxlar bo'lmaydi
- E. mayda bronxlar oxirida asinozlar bo'lib ular qon kapilyarlari bilan o'rالمagan
- F. nafas olish harakatlarida faqat qovurg'alar oraliq muskullari muhim ahamiyatga ega

507. Odamlarda uchraydigan yurakdagi tug'ma anomaliyalarni ko'sating?

- A. yurak bo'lmachalari anomaliyalari*
- B. qorinchalar o'rtasidagi to'siqlarning rivojlanmasligi*
- C. botallo yo'lining bitmay qolishi*
- D. yurak qorinchalari anomaliyalari
- E. bo'lmachalarning rivojlanmasligi
- F. qon-tomirlarning adenoziyasi

508. Odamlarda yurak qon tomirlar anomaliyasiga nima misol bo'ladi va unda yurakdan qaysi arteriyalar noto'g'ri chiqadi va u nimaga sabab bo'ladi?

- A. yurak qon tomir anomaliyasiga tomirlar transpozitsiyasi misol bo'ladi*
- B. tomirlar transpozitsiyasida aorta va o'pka arteriyasi stvollari yurakdan noto'g'ri chiqadi*
- C. yurakda aorta va o'pka arteriyasi stvollarining no'to'g'ri chiqishi arterial va venoz qon aralashishiga sabab bo'ladi*
- D. yurak qon tomir anomaliyasiga tomirlar adenoziyasi misol bo'ladi
- E. tomirlar transpozitsiyasida aorta va o'pka arteriyasi stvollari yurakdan to'g'ri chiqadi
- F. yurakda aorta va o'pka arteriyasi stvollarining to'g'ri chiqishi arterial va venoz qon aralashishiga sabab bo'ladi

509. Endokrin sistemasining evolyusiyasi qaysi sistema bilan bog'liq va endokrin bezlar evolyusiyasi qanday yo'nalishda boradi?

- A. endokrin sistemasining evolyusiyasi nerv sistemasi bilan bog'liq*
- B. endokrin bezlar evolyusiyasi tuzulishining murakkablashuvi yo'nalishida boradi*
- C. endokrin bezlar evolyusiyasi tuzulishining ixtisoslashishi yo'nalishida boradi*
- D. endokrin sistemasining evolyusiyasi qon aylanish sistemasi bilan bog'liq
- E. endokrin bezlar evolyusiyasi tuzulishining soddalashuvi yo'nalishida boradi
- F. endokrin sistemasining evolyusiyasi yo'nalishlarga ega emas

510. Zaharlilikning evolyusiyasidagi eng oddiy shakli nima hisoblanadi va ularda zaharli metabolitlar qayerga to'planadi keyinchalik zahar ishlovchi organlar qanday usullarda hosil bo'ladi?

- A. zaharlilikning eng oddiy shakli nofaol zaharlilik bo'lib, ularda zaharli metabolitlar organizmda to'planadi*
- B. keyinchalik zahar ishlab chiquvchi organlarning paydo bo'lishi qoplovchi hujayralarning hisobigabo'lgan*
